

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 60 (1386), 2025-yil 25-mart, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



Prezident tashrifidan so‘ng

## BEKTEMIRLIKLAR: “NAVRO‘Z BUNYODKORLIKLAR BILAN HAMOHANG KIRIB KELDİ”

Ko‘klam arafasi daraxtlar oppoq libos kiyganini, tabiat zamin yuziga yam-yashil gilam yoyganini, avvalo, ko‘ngli xotirjam, tinch-totuv hayot kechirayotganlar payqaydi. Hayot tashvishlari qalbini qalin qordek qoplagan, yurti, yashash joyi notinchlar uchun to‘rt fasl ham bir xil tuyuladi. Shuning uchun bahor ko‘ngillardan boshlanadi, deya she‘rlar bitadi qalam ahli.



Navro‘z — yangi kun, yangilanish bayrami shukuhini his qilish uchun esa inson, birinchi navbatda, hayotidagi farovonlik, kundalik turmushidagi yangilanish, ko‘cha-ko‘y, mahallasidagi bunyodkorlik, tub islohotlar va o‘zgarishlarni sezishi kerak. Davlatimiz rahbari ham bahor fasli, ulug‘ ayyom kunlari zavqini ko‘rish, yurtimizdagi bunyodkorliklar yangilanish fasli bilan nechog‘liq uyg‘unlashayotganini bilish maqsadida bayram arafasida Bektemir tumanidagi mahallalarda bo‘lib, aholi vakillari bilan dildan suhbat qurdi.

Davomi 3-betda

Yangi O‘zbekiston ruhi

Bahor yurtimizga o‘zgacha fayz-u shukuh, tarovat bilan kirib keldi. Tabiat butun mehri, saxovatini namoyon etdi, daraxtlar qiyy‘os gullab, bog‘larga, ko‘chalarga, xiyobonlarga ko‘chatlar ekildi, mahallalarimizda bahoriy kayfiyat, nafosat hukmron. Dehqonlarimiz allaqachon 2025-yil hosili uchun kamarbasta bo‘lib, yoppasiga ekin parvarishiga kirishgani ertangi baxtli, farovon hayotimizga katta umid, ishonch uyg‘otadi.

## BU BAHORNI UNUTIB BO‘LMAS

Ha, mutafakkirlardan biri aytganidek, “Qishni yagona orzu — bahor, Navro‘zga eson-omon yetib olish bilan o‘tkazamiz. Bahor fasli kelishi bilan qalbimizda yuzlab, minglab orzu paydo bo‘ladi”. Xalqimizning azaldan eng asosiy orzusi tinchlik, xotirjamlik bo‘lib kelgan. Yangi O‘zbekistonimizdagi barqarorlikni abadiy qaror toptirish, kelajak avlodga obod, ozod va rivojlangan mamlakat qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadidir.

Ming afsuski, bugun sayyoramizning turli go‘shalarida harbiy to‘qnashuvlar, irqiy-diniy qarama-qarshiliklar davom etmoqda. Natijada minglab begunohlar qurbon bo‘lmoqda, yana minglab odamlar o‘z uyini, vatanini tark etib, g‘arablikka yuz tutmoqda. Shunday lavhalarni, manzaralarni televideniye, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rganda buyuk mutafakkir

Shayx Sa‘diyning quyidagi hikmati yodimizga keladi: “Bani odam azaldan bir gavhardan yaratilgan bois, yaxlit bir vujuddir. Binobarin, zamona zayli uning bir a‘zosi ga jarohat yetkaza, boshqa a‘zolari ham o‘z sog‘lig‘ini (tinchligini) yo‘qotadi”.

Beadad shukur, bugun nafaqat O‘zbekistonimiz, balki mintaqamizda tinchlik, davlatlar o‘rtasida ishonchli do‘stlik hukm surmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi yangi siyosiy vaziyat, ya‘ni yaxshi qo‘shnchilik muhitini yaratishda Prezidentimizning xizmati beqiyos. “Yangi O‘zbekiston — yangi qo‘shnchilik” tamoyili izchil hayotga tatbiq etilmoqda. Buni jahon jamoatchiligi, yirik siyosiy arbob va ekspertlar e‘tirof etdi.

Davomi 3-betda

Kun mavzusi

## TASHABBUSLI BUDJET

### BIRINCHI MAVSUM G‘OLIBLARI ANIQLANDI

So‘nggi haftalarda yurtdoshlarimiz orasida muhokamalar markaziga eng ko‘p chiqqan mavzulardan biri “Tashabbusli budjet” loyihasida ovoz berish jarayonlari bo‘ldi. Loyihaning joriy yil 11-20-mart kunlari davom etgan birinchi mavsumi ovoz berish bosqichida kimlardir bevosita ishtirokchi sifatida o‘z loyihasiga ovoz berishga targ‘ibot qilgan bo‘lsa, boshqalar qizg‘in kechgan ushbu jarayonning faol kuzatuvchisiga aylandi.

Hamkasblarimizdan biri bu gal ham ovozini o‘zi tahsil olgan maktab ta‘miri loyihasiga berganini aytdi. Bir necha yildan buyon ilgari surilayotgan ushbu taklif g‘olib bo‘lishi uchun har gal yetarli ovoz to‘planmagan. Bu safar hudud ahli astoydil harakat qilayotganini gapirgandi. Shu yilning 21-mart sanasi — Navro‘z

umumxalq bayramida “Tashabbusli budjet” loyihasining birinchi mavsum g‘oliblari ro‘yxati e‘lon qilindi. Darhol hamkasbim bilan bog‘lanib, natijani so‘radim. Aytishicha, ular ovoz bergan loyiha nihoyat g‘olib bo‘lib, hudud ahli buni katta xursandchilik bilan bayram qilyapti.

Davomi 4-betda

Hududlar hayoti

Keyingi yillarda qadimdan vatan ichra vatan bo‘lib kelgan mahalla o‘zini o‘zi boshqaruv tizimining noyob xalqona shakliga aylanmoqda. Bu o‘zgarishlar mahallalarning obod va ko‘rkamligida, aholi turmush farovonligining yuksalishida namoyon bo‘lyapti. Yaqinda bojxona tizimidan nafaqaga chiqqan qishloqdoshim telefon qildi.

## YANGI DIYOR MAHALLASIDA KAMBAG‘ALLIKNI TUGATISHMOQCHI



— Xabaring bor, nafaqaga chiqsam, qishloqda yashayman degan orzum bor edi, yangi joyga ko‘chdim, — dedi u salom-alikdan so‘ng. — Mehnat faoliyatim davomida ish joyim necha marta o‘zgaragan bo‘lsa, oilam ham shuncha ko‘chib-qo‘ndi. Boshqa joyga ko‘chib kelgan odam yangi manzilga moslashguncha qiynaladi, o‘zini begonadek his qiladi. Ammo hozir ko‘chib kelgan mahallamda o‘zimdagi ham, oilamda ham bunday

bo‘lmadi. Bunga, avvalo, qo‘shnilarim, ayniqsa, mahalla faollarining bizni iliq qarshilaganini, ko‘rsatgan mehri sabab. Tuman markazidan olisroqda bo‘lsa ham obod, eng muhimi, juda ahil mahalla ekan. Kelib, shu haqda biror narsa yozsang degandim...

Ushbu suhbat sabab bo‘lib, Sharof Rashidov tumanidagi Yangi diyor mahallasiga yo‘l oldim.

Davomi 4-betda

Korrupsiya — jamiyat tanasidagi saraton

## SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAVIY OMILLARNI BARTARAF ETISH odil sudlov samaradorligini ta‘minlaydi

Prezidentimiz joriy yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishidagi nutqida korrupsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov ekanini, uning oldini olish davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanishini ta‘kidladi.



Darhaqiqat, korrupsiya illati jamiyat taraqqiyotining muhim omillari bo‘lmish tinchlik, osoyishtalik, adolat, qonun ustuvorligi kabi ijtimoiy-huquqiy qadriyatlariga salbiy ta‘sir o‘tkazadi, milliy xavfsizlikka tahdid soladi, mamlakat rivojiga to‘siq bo‘ladi. Shuning uchun

korrupsiyaga qarshi kurashishda uni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish, ya‘ni uning oldini olishga qaratilgan harakatlar vaqt va natijadorlik nuqtayi nazaridan ancha samarali hisoblanadi.

Davomi 2-betda

Munosabat

Umrimning sakson beshinchi bahorini qarshilayapman. Ijodiy faoliyatimga esa 60 yildan oshdi. Shu vaqt mobaynida ona vatanim, xalqim oldidagi burchimni vijdonan ado etishga, sadoqatimni badiiy asarlarim, kitoblarim orqali ko‘rsatishga harakat qilib kelyapman.

## CHIN DO‘ST KITOB SOVG‘A QILADI

Maktabda o‘qituvchilik qildim, oliy ta‘lim muassasasida talabalarga dars berdim. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishdim. Shu asnoda badiiy ijodni bir zum chetga surmadim. Halol mehnat qadr topadigan yurtimizda ijodkorlarga qaratilayotgan e‘tibor, berilayotgan rag‘bat bugun ko‘pchilikning havasini keltirayotir. Shoir, ma‘naviyat targ‘ibotchisi sifatida odamlar orasida ko‘proq bo‘lishga intilaman. Uchrashuvlar, muloqotlarda yurtdoshlarimizning o‘y-xayollari, fikr-mulohazalari bilan qiziqaman. Mamlakatimizdagi islohotlarga munosabatini kuzataman. Ularning bugunidan rozi, ertasidan ko‘ngli to‘q ekanini ko‘rib quvonaman.

Davomi 2-betda

Zarrabin

MAQOMNI NEGA O‘RGANISHIMIZ KERAK? OHANGLARGA YO‘G‘RILGAN O‘ZLIGIMIZ SIRI



## KORRUPSIYA — jamiyat tanasidagi saraton

## SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAVIY OMILLARNI BARTARAF ETISH

## ODIL SUDLOV SAMARADORLIGINI TA'MINLAYDI



**Hoji-Murod ISOQOV,**  
Sudyalari oliy kengashi huzuridagi  
Sudyalari oliy maktabi direktori,  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

## Boshlanishi 1-betda

“Halollik vaksinasi” bilan emlash barcha davlat tuzilmalari faoliyati, shu jumladan, sud tizimida ham korruptsiyaga qarshi qaratilgan yetarli tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni yaratish, mavjudlarini zamon talablari asosida takomillashirish va unga qat'iy rioya qilish orqali uning oldini olish va unga qarshi samarali kurashishni anglatadi.

Korruptsiya odil sudlov sifati, fuqarolarning sud hokimiyatiga ishonchi va inson huquqlariga to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sudning asosiy vazifasi adolatni ta'minlash, huquqni himoya qilish va ijtimoiy barqarorlikni qaratirishdir. Shuning uchun odil sudlovni amalga oshirishda korruptsiyaning oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, sud tizimida korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ichki va tashqi turlarga bo'linadi. Bunda asosiy mezon sifatida ushbu omillarni keltirib chiqaruvchi subyektlar va sud organlari mustaqilligiga ta'sir ko'rsatuvchi holatlar e'tiborga olinadi.

Ichki korruptsiyaviy omillar deganda, sudlarni shakllantirish va faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalarni hal etish bo'yicha sud raislari, sudyalari va sudyalari hamjamiyati organlarining sudyalari korpusini shakllantirish, sudya va sud xodimlari

faoliyatini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish, ularni rag'batlantirish va javobgarlikka tortish kabi masalalardagi suiiste'molliklar, noxolis yondashuvlar, huquqqa xilof turli xatti-harakatlarning vujudga kelishiga zamin yaratuvchi huquqiy, tashkiliy va boshqa xarakterdagi holatlar tushuniladi.

Tashqi korruptsiyaviy omillarga esa davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan odil sudlovni amalga oshirishga aralashish, unga to'sqinlik qilish, sud hokimiyati mustaqilligiga tajovuz qilishga qaratilgan, qonunga xilof harakatlarni amalga oshirishga imkoniyat tug'diruvchi holatlarni kiritish mumkin.

Demak, sud tizimida korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillar odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xavf soluvchi, sudlar mustaqilligiga salbiy ta'sir etuvchi xatti-harakatlar (harakatsizlik), holatlar, jarayonlardir.

Korruptsiyaga chek qo'yish mavjud korruptsiya omillari hamda korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni yo'qotish, ularga nisbatan qat'iy choralar ko'rish, takror sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik hamda salbiy oqibatlari bilan kurashishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar majmui. Sud tizimida korruptsiyaga chek qo'yish bo'yicha chora-tadbirlarni huquqiy va tashkiliy turlarga ajratish mumkin.

Korruptsiyaning oldini olish deganda, korruptsiyaviy omillarni aniqlash, cheklash yoki bartaraf etish, korruptsiyaning shaxsiyati, ijtimoiy xavfi, shuningdek, korruptsiyaning ayrim turlari va shakllarining paydo bo'lish hamda tarqalish omillarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

BMning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasida har bir davlat korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali amaliyotni



o'rnatishga va uni rag'batlantirishga harakat qilishi, bu sohada korruptsiyaning oldini olish bo'yicha maxsus organ yoki muayyan hollarda bir necha organlar faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi belgilangan.

Mazkur konvensiyada ishtirokchi davlatlar odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qilishni nazarda tutuvchi harakatlar uchun jinoyi javobgarlikni belgilash bo'yicha choralar ko'rishni qayd etilgan.

Shu nuqtayi nazaridan, sudlar hamda sudyalari hamjamiyati organlari faoliyatiga aralashganlik, sudga nisbatan hurmatsizlik qilganlik, sudya va xalq maslahatchisi daxisizligini buzganlik, ishning har tomonlama, to'la va xolisona ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilganlik yoki turli shaklda ta'sir o'tkazganlik uchun tegishli yuridik javobgarlikni belgilovchi qonun hujjatlarini qabul qilish davr talabi hisoblanadi.

oshirish, sudyalari korpusini shakllantirish, sudlar faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, sudlarni moliyalashtirish, sudyalari faoliyatini baholash, ularni boshqa sudyalik yoki rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish, ularni yuridik javobgarlikka tortish, rag'batlantirish va boshqa masalalarni hal qilish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali shaffoflikka erishish imkoniyatlaridan foydalanish talab etiladi.

Sud tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish aksariyat hollarda sudyalari va sud xodimlarining ma'naviy qiyofasi, ya'ni ta'limi, tarbiyasi, halolligi, vijdonlilikiga bog'liq. Shunga ko'ra, ushbu tizimga mazkur talablarga javob beradigan halol va mas'uliyatli kadrlarni tayinlash sudyalari hamjamiyati organlarining zimmasidagi birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Shu bois, sudyalikka nomzodlarning ushbu talablarga javob berishini aniqlovchi samarali mexanizmlar qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lishi zarur.

Bu borada Germaniyada nomzodlar psixologik va psixosotsional tayyorgarlikdan, Portugaliya, Belgiya, Avstriya, Niderlandiya, Vengriya, Ruminiya, Singapurda psixologik imtihondan o'tadi. Moldova va Qozog'istonda esa nomzodlar poligrafologik tekshiruvdan ham o'tishi mumkin, uning natijalari tavsiyaviy xarakterga ega bo'ladi. Qirg'izistonda esa sudyalikka nomzod qonunda belgilangan hujjatlariga qo'shimcha ravishda poligrafologik tekshiruv natijalarini ham taqdim etishi mumkin va Sudyalari kengashi tomonidan baholanadi.

Niderlandiya, Xitoy, Singapur kabi davlatlar tajribasini e'tiborga olgan holda sudyalari tomonidan o'zi, turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining mol-mulki va mulkiy majburiyatlarini deklaratsiya to'ldirish va Sudyalari vakolatli organlarga har yili taqdim etib borish amaliyotini yo'lga qo'yish, sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash va tayinlash, sudyani navbatdagi muddatga yoki rahbarlik lavozimiga tavsiya qilishda uning mulkiy ahvolini taqdim etgan deklaratsiyalari asosida tekshirib, tahlil qilish taklif etiladi.

Sudlar faoliyatini ochiqchiligi va shaffofligini ta'minlash sud tizimida korruptsiyaga qarshi samarali kurashish hamda uni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilishda muhim rol o'ynaydi. Bunda odil sudlovni amalga

ko'rib chiqishda ushbu nomzod tomonidan qabul qilingan sud qarorlarining barqarorligini, odil sudlovni amalga oshirish va qonun hujjatlarini normalarni qo'llash borasida yetarli tajribaga ega ekanini, shuningdek, kasbiy faoliyati haqida jamoatchilik fikrini inobatga oladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan yana biri aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan munosabati shakllantirishdir. Bunda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, ular ongiga halollik va poklik xislatlarini singdirish, korruptsiya illatlarining salbiy oqibatlari haqida aniq tushuntirishlar berish, bir so'z bilan aytganda, ularning ushbu sohadagi huquqiy bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash o'ta muhim vazifalardan biri.

“Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunda davlat organlari va boshqa tashkilotlar korruptsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholi, shuningdek, o'z mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quq-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo'li bilan zarur chora-tadbirlar ko'rish lozimligi, ta'lim muassasalari korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishtirish inobatiga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish belgilangan.

Bu borada Sudyalari oliy maktabining ham o'z oldidagi doimiy vazifa va majburiyatlarini bor, albatta. Davlat ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlaydi, sudyalari va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlab, ularning malakasini oshiradi. Shu bois, sudya, sud xodimlari va sudyalikka nomzodlarning bilim va malakasi, shu jumladan, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy bilimni oshirish bo'yicha maxsus vakolatli muassasa hisoblanadi.

## Munosabat

## CHIN DO'ST KITOB SOVG'A QILADI

## Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, qo'shni davlat va xalqlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish borasidagi siyosati meni doim ilhomlantirib kelgan. Shu asnodan 2024-yili “Tojik do'stim, o'zbejingman” kitobi dunyoga keldi. Mazkur she'riy to'plamda yurtimizdagi tub islohotlar mohiyatini jamoatchilikka yetkazishga, jamiyatda millatlararo do'stlik va totuvlikni, turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlik, mehr-oqibatni mustahkamlash, milliy madaniyat va an'analarni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarni ko'rsatishga intildim.

Mamlakatimiz qo'shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamladi. Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati Markaziy Osiyo davlatlaridagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tardi. Bir vaqlar qo'shni davlatlarga ming azobda viza olib borilardi. Hozir bemalol borib kelyapmiz. Bu o'zgarishlar xalqlarimiz o'rtasidagi ahillikni mustahkamladi.

Ana shunday shukhli damlarda



**Xushboq RAHIMOV,**  
shoir, ma'naviyat targ'ibotchisi,  
“Do'stlik” ordeni sohibi

shoir yuragida vatanga muhabbat tuyg'usi yanada jo'sh uradi. U yurti, tug'ilib o'sgan qishlog'ini qalbdan sevib, she'riy asarlarida ko'proq madh etishi zarur. Prezidentimiz Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagida nutqida biz — ijodkor ziyolilarga murojaat qilib, “Aziz do'stlar, sizlar noyob iste'dodingiz, aql-tafakkuringiz bilan azaliy qardoshligimizni, mushtarak

qadriyat va urf-odatlarimizni, ezgu intilishlarimizni tarannum etadigan asarlar yaratib, yoshlarimizni ayni shu ruhda tarbiyalashga hissa qo'shsangiz, xalqlarimiz sizlardan albatta minnatdor bo'ladi.

Bunday barkamol ijod namunalarini bugungi tahlikali davrda ellarimiz, ayniqsa, yosh avlodlarimizga mustahkam ma'naviy qalqon bo'lib xizmat qilishi shubhasiz”, deb bejiz ta'kidlamadi. Zotan, adabiyot do'stlik va hamjihatlik vositasidir. Shu jihatdan davlatimiz rahbarining turli mamlakatlar yetakchilari bilan uchrashuvlarda kitob sovg'a qilish an'anasi chin do'stlik ramzi deb o'ylayman.

Prezidentimizning shu yil 22-martdagi tegishli farmoniga binoan, “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlanganim ko'p yillik kamtarona mehnatlarimning yuksak e'tirofi bo'ldi. Farmonida samarali badiiy-ijodiy faoliyatim bilan zamonaviy adabiyotimizni vatanparvarlik, fidoyilik, insoniylikni tarannum etuvchi asarlar bilan boyitish, xalqimizning ong-u tafakkuri, ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, farzandlarimizni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shganim urg'ulangani meni kuchli hayajonga soldi.

Shu yoshga qadar ijodim haqida aytilgan ozmi-ko'pmi iliq gaplarni eshitganman. Lekin bu e'tirof menda vatan oldidagi burch va sadoqat hissini karrasiga oshirib yubordi.

“**SHU YOSHGA QADAR IJODIM HAQIDA AYITILGAN OZMI-KO'PMI ILIQ GAPLARNI ESHITGANMAN. LEKIN BU E'TIROF MENDA VATAN OLDIDAGI BURCH VA SADOQAT HISSINI KARRASIGA OSHIRIB YUBORDI.**”

## Aks sado

## VENCHUR FONDLAR

## biznesni rivojlantirishda MUQOBIL MANBA



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

**Shahnoza XOLMAHAMATOVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

**Prezidentimiz kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvda sohaning iqtisodiyotimiz o'rni oshirish va rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish masalalarini muhokama qildi. Uchrashuvda biznesni moliyalashtirishda muqobil manba sifatida venchur fondlarning ahamiyati alohida ta'kidlandi va soha uchun yangi tashabbuslar ilgari surildi.**

So'nggi yillarda sohani rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar ko'rdi.

Soliq stavkalari kamaytirilishi, asossiz va noqonuniy tekshiruvlarga barham berilishi, ayrim moliyaviy jarimalar keng qo'llanilishi mamlakatda tadbirkorlik muhitining ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Faol islohotlar natijasida odamlar biznes yuritishda haqiqiy erkinlikni his qilishga qolmay, o'z faoliyatida ko'rib, bilib, bu orqali ishiga ishonchi ortib borayotir. Natijada ushbu soha ish

o'rni, investitsiya, innovatsiya, raqobat, qo'shilgan qiymat va eksporti ko'paytirishga eng katta turki berayotgan yo'nalishga aylandi. Buni so'nggi besh yilda kichik va o'rta tadbirkorlar soni ikki karra ko'paygani, ular 10 million 500 ming odam — jami band aholining 74 foizi daromad topib, ro'zgor tebratayotgani misolida ham ko'rish mumkin.

So'nggi besh yilda mamlakatimizda venchur fondlar ishtirokida 145 million dollar miqdorida 53 ta startap loyiha amalga oshirildi. 2024-yil dekabrda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlat banklari mahallalardagi startap loyihalarni rag'batlantirish maqsadida venchur kompaniyalar tuzishi va ular orqali umumiy hisobda 50 million dollar miqdorida

mablag' yo'naltirilishi belgilangan edi. Shuningdek, har bir bank xususiy sherik topib, startaplarni biznesga aylantiradigan akseleratorlar faoliyatini yo'lga qo'yishi ko'zda tutilgani. O'tgan vaqt mobaynida davlatga tegishli

9 ta bank 3 ta venchur kompaniya ochib, 50 million dollar qiymatidagi fond shakllantirdi. Bu biznes boshlayotgan tadbirkorlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi.

Ushbu tashabbus natijasida noyob biznes g'oyalarga ega, lekin yetarlicha mablag'i bo'lmagan ko'plab yoshlar va tadbirkorlar startap loyihalari hayotga tatbiq etilmogda. Bunda nafaqat moliyaviy xizmat ko'rsatish, balki loyihani ishlab chiqish, ishlabarmonlik strategiyasini to'g'ri yo'naltirish, bozorga kirib borish kabi masalalarda ham ko'maklashilyapti.

Davlatimiz rahbari bunday loyihalar iqtisodiyotga yangi yo'nalish, texnologiya, innovatsiya va yuqori qo'shilgan qiymat olib kirishini alohida qayd etib, bu boradagi ishlar hal yetarli emasligini ta'kidladi. Venchur fondlar mablag'ining bir qismini sun'iy intellekt loyihalariga yo'naltirish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Mamlakatimizda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha venchur fondlarga e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki ular yangi boshlanayotgan startaplarni uchun juda qo'l keladi. Venchur fondlar startaplarga boshlang'ich kapitalni ta'minlaydi. Bu startapning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan eng muhim omil. Ularda startaplar o'sishiga yordam beradigan tajribali mutaxassislar bor. Shu bois, bozor tahlili, marketing, moliyaviy rejalashtirish va boshqa sohalarida maslahat berishi mumkin. Bundan tashqari, venchur fondlarning keng aloqa tarmog'i mavjud. Ular startaplarga investorlar, mutaxassislar va boshqa muhim shaxslarni jalb qilishda yordam beradi. Startapga investitsiya kiritishi venchur fondning boshqa investorlar uchun jozibadorligini oshiradi va startap rivojlanishi uchun to'g'ri yo'nalish tanlashda yordam beradi.

Venchur fondlarning yana bir muhim jihati yangi ish o'rnlari yaratish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishidir. Shuningdek, innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Jamiyatga foyda keltiradigan yangi texnologiyalarni takomillashirishga imkon yaratadi.

Prezidentimiz kichik va o'rta biznes rivojini muhim deb bilib, venchur fondlar bu sohaning muvaffaqiyati uchun katta ahamiyatga ega ekanini uqtirmogda. Zero, venchur fondlar startaplarga nafaqat pul, balki tajriba va aloqa jihatidan ham ko'maklashib, mustaqil biznesga aylanishiga yordam beradi.

Prezident tashrifidan so'ng

Yangi O'zbekiston ruhi

**BEKTEMIRLIK: "NAVRO'Z BUNYODKORLIK BILAN HAMOHANG KIRIB KELDI"**



Boshlanishi 1-betda

**"YETTILIK" AHOLINING 70 MUAMMOSINI HAL ETYAPTI**

**Zulfiqor KAVAYEV, Ilykta mahallasi raisi:**

— Prezidentimiz tashabbusi bilan mahallada "yettilik" tashkil etilgach, aholi o'z muammosi bilan turli tashkilotlar eshigida sarson bo'lmay, mahalla idorasining o'zidayoq yechim topmoqda. Imtiyozli kredit kerakmi, ish kerakmi, ijtimoiy yordammi, yo bo'lmasa, biror oilaviy muammomi — hech o'ylanib o'tirmay, mutaxassislarimizga murojaat qilyapti. Avval mahallaga ma'lumotnoma beruvchi tashkilot sifatida qaralardi. Hozir odamlarning ham mahalla haqidagi fikri o'zgardi. Ko'pchilik biror muammo bezovta qilayotgan qo'ni-qo'shnisiga ham, birinchi navbatda, mahallaga borishni tavsiya qilyapti. "Mahalla yettilligi" aholining 70 foiz muammosini hal etyapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Aholini o'ylantirgan masalalarning tez va oson yechim topayotgani esa odamlarning kayfiyati, faolligiga ham ta'sir etyapti. Yaratilgan shart-sharoit, zamonaviy qulayliklar, ayniqsa, mahallamiz hududida bunyod etilgan ko'p qavatli uylarda yashayotganlar hayotiga o'zgarish kiritdi. Buni ularning o'zi davlatimiz rahbari bilan muloqotda ham bot-bot ta'kidladi.



Ilgari ko'p qavatli uylar o'rni e'tibordan chetda qolgan, qarovsiz, eski, pastqam uylar, o'ydim-chuqur, abgor ko'chalar joylashgan hudud edi. Mahallamizda ham bunyodkorlik



epkini esa boshlagach, aholining yangi biznes loyihalari qilish, ishlab, turmush sharoitini yaxshilash, daromadini oshirishga ishtiyoqi oshdi. Birgina o'tgan yilning o'zida mahallamizda 51 ta mikroloyiha ishga tushirilib, 170 ta ish o'rni ochildi. Kambag'al oilalar soni karrasiga kamayib, 18 kishi qoldi.

Prezidentimiz mahallamiz idorasi faoliyati bilan tanishib, bu yil yanada yuqori natijalarga erishishimizga ishonch bildirdi. Bajarilishi kerak bo'lgan ishlar bo'yicha kerakli tavsiya va maslahatlar berdi. Mahalla ahli bilan ko'tarinki kayfiyatda suhbatlashib, yangilanishlarni birgalikda amalga oshiramiz, deya ruhlantirdi.

**YASHASH JOYIMIZDA YASHILLIK YARATAYLIK**



**Qizilgul QOSIMOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

— Atrof-muhitni asrash, daraxt o'tqazishga ming marta targ'ib qilib, nutq so'zlagandan ko'ra, keling, aziz yurtodoshlar, deya birgalikda yerga nihol qadab, bog' barpo etish ancha foydali va ta'sirlidir. Davlatimiz rahbari ham Bektemir tumanida yeng shimarib, aholi vakillari bilan birga daraxt ekdi. Uning namunasidan ruhlanib, biz ham qo'limizga belkurak olib, ko'chat o'tqazdik. Tumandagi uch gektar yaydoq maydonda uch mingdan ortiq daraxt ekilib, ajoyib yashil maydon, mo'jaz bog' barpo etildi.

Yurtimizda uzoqni ko'zlagan islohotlar amalga oshirilmoqda, keng qurilish, bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Bu baland binolar, ko'p qavatli uylar atrofida daraxt ekilib, ko'kalamzorlashtirish ishlari izchil bajarilayotganida ham namoyon bo'layotir. Ayniqsa, "Yashil makon" umummiy

loyihasi chin ma'noda xalq harakatiga aylandi. Bu sa'y-harakat butun dunyo davlatlari oldida turgan global ekologik muammolar, xususan, ozon qatlami yemirilishi, global isishning ta'siri kamayishiga hissa qo'shadi.

Albatta, bu islohotlar jarayonida odamlar ham jonbozlik ko'rsatishi kerak. Dam olish kunlari tog' yonbag'ri, tabiat qo'yniga yugurmay, o'zi yashaydigan manzilda daraxt o'tqazib, "yashil belbog'" hosil qilishi ayni davr talabi. Bu, avvalo, o'zimiz, farzandlarimizning salomatligini himoya qilishning eng maqbul yechimidir.

Bektemir tumani aholisi Prezidentimiz bilan muloqotda ham buni teran angladi. Ekilgan uch mingdan ortiq daraxtni parvarishlashda bosh-qosh bo'lishga va'da berishdi. Buning, avvalo, o'zlari uchun foydali ekanini qalban his etishdi.

**O'ZBEKISTONNI SOG'INIB QAYTAMAN**

**Viktoriya AN, Rohat mahallasi faoli:**

— Bektemir tumani Rohat mahallasida tug'ilib o'sganman. Bu yerda ko'pmillatli xalq hamjihatlikda umurgaronlik qiladi. Shuning uchun ham O'zbekistonni, mahallamni, bu yerdagi qo'ni-qo'shni, do'st-u birodarlarimni juda yaxshi ko'raman.

Qaysi davlatga bormay, O'zbekistonni sog'inib, tezda qaytib kelaman. Ilgari mahallamiz ko'rimsiz joy edi. Hozir esa zamonaviy, shinam, barcha qulayliklarga ega hududga aylangan. Barpo etilgan bolalar o'yinchoqlari, amfiteatr, nuroniylar maskani,



ayniqsa, xavfsiz, yorug', ravon ko'chalar hayotimizga ham charog'onlik olib kirmoqda.

Keyingi ikki-uch yilda mahallamizda qilingan ishlar ushbu maskanga mehruhabbatimni yanada oshirdi. Mahallamizdagi yangilanishlar va ko'pmillatli xalqimizga yaratilgan imkoniyatlar uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdim. Bektemir tumanida turli millat vakillari bir oila a'zolaridek ahil istiqomat qiladi. Albatta, bunga mamlakatda yuritilayotgan oqilona siyosat puxta zamin yaratayotir.

Shu bois, mahalla ahlining Prezidentimiz bilan dildan suhbatida bu qulayliklarni alohida e'tirof etdim. Davlatimiz rahbari biz bilan samimiy suhbatlashib, kayfiyatimizni ko'tardi, kelajakka ishonchimizni oshirdi.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri Sanjar ESHMURODOV yozib oldi.**

Prezidentimiz 2021-yil 10-11-iyun kunlari qo'shni mamlakatga davlat tashrifining ikkinchi kunida aynan Arbob saroyida Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon hamrohligida ushbu respublika ziyolilari bilan uchrashib, muloqot asnosida ikki buyuk mutafakkir — Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haqida hamkorlikda badiiy film yaratish g'oyasini ilgari surgandi. Ushbu film bugun "Yulduzlar shu'lasi: Jomiy va Navoiy" nomi bilan suratga olinmoqda.

**BU BAHORNI UNUTIB BO'LMAS**



**Shoqahor SALIMOV, jurnalist, "Do'stlik" ordeni sohibi**

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz bundan yetti yil muqaddam 9-10-mart kunlari Tojikiston Respublikasiga davlat tashrifi bilan borib, ikki mamlakat o'rtasida qariyb chorak asr davom etgan "sovuq" munosabatlarni bartaraf etdi. Aloqalarimizni strategik hamda ittifoqchilik darajasiga ko'tardi. So'nggi yetti yilda hamkorlik aloqalari, ayniqsa, iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olib, o'zaro savdo qiymati 197 million dollardan 757 million dollargacha o'sdi. Bu ko'rsatkichni 1 milliard dollarga yetkazish imkoniyati mavjud.

Tojikistonlik ekspert Parviz Mullajonovning ta'kidlashicha, O'zbekiston hamda Qirg'iz Respublikasi Tojikistonning yirik savdo sheriklaridir. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 5-6-sentabr kunlari Qirg'izistonga davlat tashrifi ham ikki mamlakat o'rtasidagi yaqin do'stlik aloqalari tarixida muhim voqea bo'ldi.

ulkan tranzit salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi". Mazkur loyihaning umumiy qiymati 4 milliard 665 million dollarga baholanmoqda.

Gumanitar yo'nalishda ham hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvlari o'tkazib kelinayotgani mintaqadagi tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash, insoniy potentsialni jipslashtirish borasida qulay vosita bo'lib qolmoqda.

qardoshligimizni, mushtarak qadriyat va urf-odatlarimizni, ezgu intilishlarimizni tarannum etadigan asarlar yaratib, yoshlarimizni ayni shu ruhda tarbiyalashga hissa qo'shsangiz, xalqlarimiz sizlardan albatta minnatdor bo'ladi.

Bunday barkamol ijod namunalari bugungi tahlikali davrda ellarimiz, ayniqsa, yosh avlodlarimizga mustahkam ma'naviy qalqon bo'lib xizmat qilishi shubhasiz", dedi.

Xo'jandda o'tadigan uch tomonlama uchrashuv Prezidentimizning yuqorida



Navro'z bayrami arafasida Prezidentimiz mintaqa davlatlari yetakchilari bilan telefon orqali muloqot qilib, ikki va ko'p tomonlama hamkorlik bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashdi.

Davlatimiz rahbari Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida yaqin kunlarda

aytilgan olijanob va ezgu maqsadini hayotga tatbiq etish yo'lida yana bir amaliy qadam bo'lishiga ishonchimiz komil.

Mazkur uchrashuvning aynan ushbu qadimiy shaharda o'tkazilishida ham ramziy ma'no bor. Xo'jand azaldan uch qardosh, birodar ellar — o'zbek, tojik, qirg'iz xalqlarining tarixiy savdo-sotiq



**Bu yilgi fayzli va farahbaxsh Navro'zi olam arafasida mintaqamiz tinchligi va barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq yana bir muhim voqea ro'y berdi. 13-mart kuni Qirg'iziston va Tojikiston rahbarlari mamlakatlar o'rtasidagi davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Mana shu voqeani nafaqat tojiklar va qirg'izlar, balki butun mintaqa xalqlari ko'p yillardan buyon kutgan edi. Demak, mintaqaviy tinchlik va yaxshi qo'shnichilikka yana bir qat'iy amaliy qadam qo'yildi.**

So'nggi yillarda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik hamda yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklik munosabatlari ham izchil mustahkamlanib bormoqda. Investitsiyalar va sanoat kooperatsiyasi bo'yicha keng ko'lamli

Xo'jand shahrida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston yetakchilarining uchrashuvi bo'lib o'tishini aytdi.

Prezidentimiz mintaqamizda yashayotgan jamiki sof niyatli insonlarni O'zbekiston xalqi nomidan tabriklab,

aloqalari, madaniyatlari kesishgan shahar bo'lib kelgan. Xo'jand Tojikiston tarixida "Tinchlik shahri" nomi bilan ham yodga olinadi. Chunki aynan shu shaharning Arbob qarida 1992-yil 16-noyabr kuni Tojikiston Oliy Kengashining XVI sessiyasi bo'lib o'tgan va mamlakatda uzoq davom etgan fuqarolar urushiga nuqta qo'yilgan.

Prezidentimiz 2021-yil 10-11-iyun kunlari qo'shni mamlakatga davlat tashrifining ikkinchi kunida aynan Arbob saroyida Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon hamrohligida ushbu respublika ziyolilari bilan uchrashib, muloqot asnosida ikki buyuk mutafakkir — Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haqida hamkorlikda badiiy film yaratish g'oyasini ilgari surgandi. Ushbu film bugun "Yulduzlar shu'lasi: Jomiy va Navoiy" nomi bilan suratga olinmoqda.

Bu yilgi fayzli va farahbaxsh Navro'zi olam arafasida mintaqamiz tinchligi va barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq yana bir muhim voqea ro'y berdi. 13-mart kuni Qirg'iziston va Tojikiston rahbarlari mamlakatlar o'rtasidagi davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Mana shu voqeani nafaqat tojiklar va qirg'izlar, balki butun mintaqa xalqlari ko'p yillardan buyon kutgan edi. Demak, mintaqaviy tinchlik va yaxshi qo'shnichilikka yana bir qat'iy amaliy qadam qo'yildi. Mana shunday faol siyosiy muloqotlar mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonch va do'stlik muhitini yanada mustahkamlaydi.

Bu yil bahorda Markaziy Osiyo xalqlarini yanada jipslashtiradigan, tinchlik, totuvlik, hamkorlikka chorlaydigan ko'plab voqealar bo'lib o'tdi va bo'lishi kutilyapti. Shunday ekan, ezguliklarga yo'g'rilgan bu bahorni unutib bo'lmas...

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



hamkorlik o'z samarasini bermoqda. Transport va logistika sohasidagi istiqbolli hamkorlik, xususan, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lini bunyod etish loyihasi alohida qayd etish joiz.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili 27-dekabr kuni mazkur temir yo'l qurilishi boshlanishiga bag'ishlangan tantanali marosim ishtirokchilariga murojaat qilib, jumladan, bunday degandi: "Ushbu magistrallar yo'lining ishga tushirilishi mintaqaviy savdo va investitsiyalar hajmini bir necha barobar ko'paytirish, transport xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish, Markaziy Osiyoning

bo'lajak oliy darajadagi muloqotga e'tibor qaratar ekan, uchrashuv yaxshi qo'shnichilik munosabatlarni mustahkamlashda yana bir amaliy qadam bo'lishiga ishonch bildirib: "Tom ma'noda do'stlik, qardoshlik va hamkorlik makoniga aylanayotgan mintaqamiz hamisha tinch bo'lsin, hamisha gullab-yashnasin!"

Shu o'rinda mintaqamizning hurmati ziyolilari, ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot namoyandalari murojaat qilib aytmoqchiman.

Aziz do'stlar, sizlar noyob iste'dodingiz, aql-tafakkuringiz bilan azaliy



# TASHABBUSLI BUDJET

## BIRINCHI MAVSUM G'OLIBLARI ANIQLANDI



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

### Boshlanishi 1-betda

Bunday xursandchilik ovozlari yurtimizning boshqa hududlaridan ham baralla eshitildi. G'oliblar ro'yxati "Ochiq budget" portalida e'lon qilingach, ijtimoiy tarmoqlarda "g'alaba"ni nishonlayotgan yurtdoshlarimiz quvonchi aks etgan turli videolar tarqaldi. Loyiha g'olibligi uchun birlashib, o'z hududidagi aniq bir muammo yechimi yo'lida birgalikda harakat qilgan aholi endi xursandchiligini ham kamaytirmay sadolarida, raqslarga tushib, hatto konsert uyushtirib nishonlaganiga guvoh bo'ldik.

Boisi, yilda ikki marotaba o'tkazilayotgan "Tashabbusli budget" loyihasi xalqimiz orasida yaxshigina ommalashib, ulami bir maqsad atrofida birlashtirayotgan ijtimoiy harakatga aylanib ulgardi. Shuning oridan ajratilayotgan mablag' evaziga ta'mirlanayotgan yo'llar, binolar, yangi qurilayotgan inshootlar odamlarning loyihaga ishonchini yanada oshiraypti. Yurtdoshlarimiz har gal loyihani oqshimoqda. Talabgor tashabbuslar soni ham yil sayin ortib boryapti.

"Tashabbusli budget"ning joriy yilgi 1-mavsumiga 1-fevraldan start berilgan edi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, birinchi mavsum bosqichida yurtimiz bo'ylab 10 million 450 mingta ovoz berilgan. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, birinchi

mavsumda 2,7 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgandi. Ammo qiymat ancha yuqori bo'ldi — yakunda 2369 ta loyiha g'olib topilib, ulami moliyalashtirishga 3,2 trillion so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

### 26 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan loyiha

G'oliblikni nishonlayotganlar bunga erishish oson bo'lmaganini yaxshi biladi. Chunki "Tashabbusli budget" loyihasi ko'lami ortgani sari taklif etilayotgan loyihalar soni ham ko'payib, ular orasidagi raqobat o'sib boryapti. Birgina joriy mavsumda aholidan 28 ming 399 ta tashabbus kelib tushgani buning misoli. Shularidan 23 ming 457 tasi saralash bosqichidan o'tib, 2369 tasi ovoz berish natijalarida g'olib deb topilgan. Ammo avvalgi mavsumda g'olib loyihalar soni 1772 ta bo'lganini hisobga olsak, bu borada ham o'sish kuzatilgan.

"Tashabbusli budget" o'z nomi bilan budget mablag'larining muayyan qismini sarflash bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish orqali aholining mahalliy o'zini o'zi boshqarishda bevosita ishtirok etish shaklidir. Fuqarolar tomonidan muayyan taklif ilgari surilgan ekan, u jamoatchilikka ochiq taqdim etiladi. Aholi ko'pincha yo'llar yomonligi, ta'lim va tibbiyot muassasalari ta'mirlalab holga kelib qolgan, muhandislik infratuzilmalari yetishmasligini

ko'rsatadi. Har bir loyihaga omma tomonidan ovoz beriladi. Eng ko'p ovoz to'plagan takliflar g'olib deb topiladi va loyihalar berilgan ovozlardan sonidan kelib chiqib saralanadi, moliyalashtiriladi.

Bunda odamlar "Ochiq budget" portali orqali o'z hududidagi ijtimoiy muammolar bo'yicha takliflarini qoldiradi. Jarayonlarning birin-ketin davom etadigan loyiha kiritish, saralash, targ'ibot bosqichlaridan o'tgan loyihalar ovoz

kesimida eng ko'p tashabbuslar Samarqand, Buxoro va Farg'ona viloyatlaridan kelib tushgan. Eng ko'p tashabbuslar g'olib bo'lgan hududlar kesimida esa Farg'ona viloyati (254 ta) yetakchilik qilmoqda. Ayniqsa, Yakkabog'lik yurtdoshlarimiz loyihada nihoyatda faol bo'lgani ko'zga tashlandi. Boisi, eng ko'p ovoz to'plagan top o'n ikkitalikdagi loyihalarimiz bari Yakkabog' tumanidan ilgari surilgan tashabbuslar ekanini ko'rish mumkin.

shahridan qo'yilgan mazkur loyiha Muqaddas Hojimurodova tomonidan taklif etilgan bo'lib, unda ko'cha chiroqlari o'rnatish bo'yicha tashabbus ilgari surilgan. Minglab to'plangan ovozlardan katta loyihalar orasida bu bir oz arzimasek ko'rinishi mumkin. Ammo buning uchun ham hudud ahli ozmi-ko'pmi harakat qilgani, ana shu tashabbusni ilgari surib, kichik bo'lsa-da, muammoni yechimiga befarq bo'lmagan quvonarli. Vaholanki, turmushimizdagi farovonlik shu kabi kichik muammolarni hal etishdan boshlanadi.

### Majburiy ovoz to'plangan loyiha g'oliblar ro'yxatidan chiqarilishi mumkin

Xayrli tashabbusning boshi ham, oxiri ham xayrli bo'lgani yaxshi. Ya'ni "Tashabbusli budget"da g'olib bo'lishga intilish majburiy ovoz berishga undash, noqonuniy harakatlarga sabab bo'lmagligi muhim masala. Loyihaning o'tgan yillardagi mavsumlari bu boradagi e'tirozlarga sabab bo'lgani, har gal "Tashabbusli budget"ning ovoz berish bosqichi boshlanishi bilan ovoz berishning turli nohoqlik usullaridan foydalanish holatlari kuzatilishi sir emas. Har bir ovoz uchun biror narsa taklif qilishlar ochiqchasi tus oladi. Shu bois, loyiha takomillashtirib borilgan sari bunday holatlarga chek qo'yish choralarini ham ko'rilmoqda. Masalan, 2024-yildan "Bir fuqaro — bir ovoz" tamoyili joriy etildi. Bu bir fuqaro, uning nomida bir necha SIM karta bo'lsa ham bir mavsumda faqat bir marta ovoz bera olishini anglatadi. Mazkur chora bir dunyo SIM karta sotib olib, loyihaning g'oliblik imkoniyatini oshirishga uringanlarning xatti-harakatlariga bir javob bo'ldi. Bundan tashqari, ushbu tamoyil turli ko'rinishdagi ovoz to'plashga majburlolarning ham oldini oladi.

Loyihaning joriy yilgi birinchi mavsumida esa "Tashabbusli budget"da majburiy ovoz berishga jalb qilish holatlariga to'g'risida xabar berish uchun ishonch telefoni ishga tushirildi. Bu haqda Iqtisodiyot va moliya vazirligi internet



berish bosqichida qatnashadi. Muayyan muddat davomida ovozlarga to'planib, g'olib deb topilgan tashabbuslar davlat budgetidan moliyalashtiriladi. Ahamiyatli, mana shu bosqichlarning barida bevosita xalqimizning o'zi ishtirok etadi. Davlat tashkilotlari yoki mutasaddi korxonalarimiz ishtiroki, ta'siri bo'lmaydi. Jamiki kiritilgan loyihalar, ularga berilgan ovozlardan va ajratiladigan pullarning bari shaffof tizim orqali ko'rib turadi. Mablag' ham qisqa fursatlarda ajratilaypti.

"Ochiq budget" portali ma'lumotlariga ko'ra, loyihaning bu yilgi 1-mavsumida hududlar

Joriy mavsumda bir loyiha uchun eng yuqori qiymat 1 milliard 500 million so'mni tashkil etdi. Ana shu mablag'ni qo'lga kiritgan Yakkabog' tumanidan qo'yilgan loyiha yurtimiz bo'yicha eng ko'p — 14 ming 634 ta ovoz to'plagan. Ma'ruf Jo'rayev tomonidan kiritilgan mazkur loyihada ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar nazarda tutilgan. Ko'chalarni asfaltlash, piyodalar yo'lakchasi va yo'l o'tkazgichlar ajratish takliflari berilgan.

Loyihada eng kam — 26 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan loyiha ham bor. Ohangaron

## Hududlar hayoti

### Boshlanishi 1-betda

Janubiy Qizilqumning Nurota tog'i etaklariga tutash adog'ida joylashgan bu qishloq o'tgan asrning 60-yillarida cho'lni o'zlashtirib, paxta yetishtirish avj olgan davrda barpo etilgan manzillardan biri. Dastlab Baxmal tumanining tog'li qishlog'idan ko'chib kelgan o'ndan ziyod oila asos solgan qishloqda bugun 1377 xonadonda olti mingdan ortiq aholi yashaypti. Qishloq ahli soni ortishiga tabiiy ko'payishdan tashqari keyingi yillarda yuqoridagi tanishimga o'xshab yashash uchun yaxshi joy izlab ko'chib kelganlar ham ancha hissa qo'shgan, albatta.

Odatda yangi barpo etilgan aksar qishloqlarning nomlanishi bir xil — Yangi qishloq deyilgan. Dastlab Toqchilik, keyin Gandumtosh, eng oxiri Kuyovboshi fuqarolar yig'ini tarkibida bo'lgan bu manzil ham Yangi qishloq deb atalgan. 2018-yilda Yangi diyor nomi bilan alohida mahalla fuqarolar yig'ini tashkil etilgan.

Avval kasb-kori asosan paxta bilan bog'liq bo'lgan qishloq ahli keyingi yillarda ziroatning barcha turlarini yetishtirishning hadisini oldi. Bundan tashqari, chorvachilik, tadbirkorlik ham asosiy daromad manbalariga aylandi. Kichikroq bo'lsa ham sanoat korxonalarini paydo bo'ldi.

Yangi diyorida dastlabki subhaddoshim meni bu yerga taklif qilgan kishining o'zi bo'ldi.

— Yangi diyor nimasi bilan sizga ma'qul bo'ldi? — deb so'radim undan.

— Mahalla odamlarining mehri, — deydi u. — Ko'chib kelganimdan so'ng bir hafta o'tmasdan mahallamizdagi hokim yordamchisi Abror Elmurodov bilan mahalla yoshlar yetakchisi Sadridin Begimqulov xonadonimga kelib, "Xalqimizning elga o'qshilisa davlat degan dono naqli bor. Qadamingiz qutlug', qo'nishingiz xayrli bo'lsin", deb tabriklaganida ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Ular tanishish, subhat davomida mahalla hayoti, "yettilik" tavsiyasi orqali beriladigan imtiyozlar haqida gapirdi. Ulardan so'ng ko'p o'tmay, mahallaning yana ikki vakili — xotin-qizlar faoli bilan ijtimoiy xizmat xodimasi kelib, sharoitimizni o'rganib ketdi. Ular ham o'z vazifalaridan kelib chiqib, agar zarurat bo'lsa, ko'maklashishini aytdi. Yangi ko'chib kelib, hali mahallaning past-balandini bilmay, yotsirab turgan oilaga bunday e'tibor naqadar zarurligini menga o'xshab ko'chib-qo'nganlar biladi. Bunday e'tiborni avval uchratmaganman. Hozircha biror yordamga muhtoj emasman-u, ammo mahalladagi bu yaxshi o'zgarishni yuzsangiz degan niyatda aytayman.

# YANGI DIYOR MAHALLASIDA KAMBAG'ALLIKNI TUGATISHMOQCHI

— Oddiy uy bekasi edim, "Ayollar daftari"da ro'yxatda turardim, — deydi o'zini Dilfuza deb tanishtirgan opa. — Ro'zgorimiz zo'rg'a o'tardi. Bundan bir yarim yil oldin mahallamizdagi hokim yordamchisi tavsiyasi bilan 33 million so'm kredit olib, oilaviy tadbirkorlikni boshladik.

Yaxshi ishini el bilgani yaxshi. Subhaddoshimning aytganlari o'rtiqcha maqtov emas, Yangi diyorning kundalik hayoti ekaniga mahalla idorasida bo'lganimga o'zim ham ishonch hosil qildim.

Mahalla raisi Alisher aka Jonuzoqov uzoq yillar soliq tizimida ishlagan. 2018-yili Yangi diyor mahallasi tashkil etilgandan buyon rais vazifasida ishlab kelayotgan ekan.

Mahalladagi islohotlar fuqarolar yig'ini odamlarga haqiqiy nafi tegadigan idoraga aylantirdi, — deydi rais. — Bu aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, davlat va jamoat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga samarali xizmat qilmoqda. Ko'pgina muammolar mahallaning o'zida hal bo'lmoqda. Odamlar imtiyozli kreditlar, subsidiya olib, tadbirkorligini yo'lga qo'ydi. Daromadli bo'ldi. Ish o'rnlari yaratdi. "Obod mahalla" dasturi asosida mahallamiz obodlashib, yangilandi. Odamlarning hayoti farovonlashib, ma'naviyati ham boyimoqda. Mehr-oqibat, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi azaliy qadriyatlarimiz mustahkamlanmoqda.

Oqsoqolning aytishicha, o'tgan yili o'ndan ziyod oila kambag'allikdan chiqarilibdi. Bu yil kambag'allikni tugatishmoqchi ekan. Bunga mahallada imkoniyat bor. Imkoniyat bor joyda niyat amalga oshadi, albatta.



Subhatimiz mahalla faollari, idoraga turli yumushlar sabab kelgan fuqarolar bilan davom etdi.

— Oddiy uy bekasi edim, "Ayollar daftari"da ro'yxatda turardim, — deydi o'zini Dilfuza deb tanishtirgan opa. — Ro'zgorimiz zo'rg'a o'tardi. Bundan bir yarim yil oldin mahallamizdagi hokim yordamchisi tavsiyasi bilan 33 million so'm kredit olib, oilaviy tadbirkorlikni boshladik. Turli pishiriqlar tayyorlab sotamiz. Avval mahsulotlarimizni atrofimizdagi do'konlarga berardik, keyinchalik Jizzax shahridagi bozorlarga olib chiqdik. Hozir viloyatimiz bo'ylab tarqataymiz. To'rt kishini ish bilan ta'minladim. 100 million so'm kredit olib, faoliyatimni kengaytirib, qo'shni viloyatlar bozoriga ham kirmoqchimiz. Hozir shu masalada hokim yordamchisi bilan gaplashmoqchiman. — Men mahalla ijtimoiy xizmat xodimasi



Tursunoy Abulqosimova oldiga kelgandim, — deydi subhaddoshlarimizdan yana biri Dilafro'z Jumaboyeva. — Qaynonamni sanatoriya yubormoqchi edik. Onlayn ro'yxatga qo'yarmoqchiman. Jumalist ekansiz. Biz ishlaydigan tikuvchilik sexi haqida ham maqola yozing. Mahsulotlarimiz Toshkent bozorlarida sotiladi. Boshlig'imiz Gulmira Begimqulova mahallamizning faol ayollaridan.

— Mahallamiz ahlining 1237 nafarini yoshlar tashkil qiladi. Har yili yoshlarning ijtimoiy faoliyati, o'qish va ish bilan bog'liq holatlarini kuzatish maqsadida xatlov o'tkazamiz. Yaqinda navbatdagi xatlovni to'liq tugatdik. Xatlov jarayonida yoshlarning orzu-umidlari, ijtimoiy holatlari va kelajakdagi rejalari haqida ma'lumot to'pladik. Xatlov natijalari asosida yoshlarning muammolarini hal etishga, orzularini ro'yobga chiqarishga



harakat qilaymiz. O'tgan yili 87 yoshga 50 sotixdan yer ajratildi. Bahorda ular faoliyatini boshlaydi. 7 nafariga chorvachilik va dehqonchilik uchun imtiyozli kredit olishga ko'maklashdik. Shuningdek, 10 nafariga noutbuk olib berdik. Mahalla yoshlari "Besh tashabbus olimpiadasi"ga ham tayyorgarlikni boshlab yubordi. 2024-yili voleybol musobaqasining respublika bosqichida to'rtinchi o'rinni egallagan qishloq yoshlari bu yil yanada yuqori natijalarni ko'zlab harakat qilmoqda, — deydi mahalla yoshlari yetakchisi Sadridin Begimqulov.

Subhatda bo'lganlarning ko'pchiligi mahalladagi hokim yordamchisi Abror Elmurodov faoliyatidan ham mamnun ekanini bildirdi. — Hokim yordamchisi 100 million so'm imtiyozli kredit olishimga yaqindan ko'mak berdi, — deydi Gulmira Begimqulova. — Mas'uliyati cheklangan jamiyat ochib, kambag'al oilalardan 11 xotin-qizni ishga oldim. Buyurtma asosida ishlayapmiz. Hozirgi ish yojimiz torlik qilyapti. Uymizning chekkasidan seximiz uchun alohida bino qurayman. Agar mahalla yana yordam bersa, faoliyatimni bundan-da kengaytirmoqchiman.

tarmoqlari orqali ma'lumotlarni taqdim etib bordi.

— Ovoz berish jarayonida ishonch raqamiga majburiy ovoz berishga jalb qilish holatlarini bilan bog'liq 20 dan ortiq shikoyat kelib tushgan, — deydi vazirlik bosh mutaxassisi Habibullo Hamidov. — Barcha murojaatlar ko'rib chiqish uchun tegishli tuman (shahar) xalq deputatlarini kengashlariga yuborilib, holat o'z tasdig'ini topgan taqdirda mazkur loyihalar ovoz berish bosqichidan chetlatiladi. Gap shundaki, "Tashabbusli budget" jarayoni doirasida majburiy ovoz berishga jalb etish majburiy mehnat sifatida tasniflanishi belgilangan va bunga jiddiy choralar ko'riladi. Masalan, Quva tumanidagi fuqarolar majburiy ovoz to'plashga jalb qilinishi holati qayd etilgan sababli majburiy ovoz to'plangan loyihalarga aniqlik kiritilmoqda. Ular g'oliblar ro'yxatidan ham chiqarilishi mumkin. O'rganish natijalariga ko'ra, mazkur tuman bo'yicha g'olib loyihalar qo'shimcha ravishda e'lon qilinadi.

Ochiq'i, ovoz berish va ovoz to'plash xalqning ixtiyoridagi masala bo'lib, xayrli ishga boshqalarni ham jalb etish, targ'ibot qilishning yomon tomoni yo'q. Ammo bu, yuqorida ta'kidlaganimizdek, noqonuniy harakatlardan, aldovlarga sabab bo'lmagligi, majburiy tus olmasligi lozim. "Tashabbusli budget"ning joriy yilgi birinchi mavsumi ham targ'ibotlardan xoli o'tmadi. Ovoz to'plash uchun odamlar turli usullarni ko'rdi. Jumladan, hamyurtlarga ovozlarini evaziga telefon hisobini to'ldirib berish, bepul ichimlik yoki o'simlik yog'i taklif etildi. "Bir ovoz — 15 ming so'm" degan e'lonlarda belgilangan narx ovoz berish yakuniga borib, bir necha barobargacha ko'tarilib ketdi.

Bunday usullar qonunchilikka va loyiha tartibida belgilanmagan bo'lsa-da, odamlarning ixtiyoriy tanlovi ham noqonuniy emas. Ya'ni berilayotgan taklifni qabul qilish yoki qilmastik har kimning o'z ixtiyorida. Ovoz berish ham ixtiyoriy masala. Kimlardir hech qanday manfaatsoz o'z hududi uchun ovoz bergan bo'lsa, ba'zilar turli takliflarni ixtiyoriy qabul qilib, biror narsa evaziga ko'rsatilgan loyihalarga ovoz berdi. Har qaysi holatda ham kishilar xayrli tashabbus ishtirokchisiga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlarda hamyurtlarimizdan biri bunday yozdi: "Nima bo'lganda ham "Tashabbusli budget" odamlarni birlashtira olyapti". Haqiqatan, loyiha fuqarolarda saylov kompaniyalarini olib borish, o'z takliflarini ochiq ilgari surish, jamiyatdagi muammolarga nisbatan faollik ko'rsatish ko'nikmasini shakllantirmoqda.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

berdi, — deydi Gulmira Begimqulova. — Mas'uliyati cheklangan jamiyat ochib, kambag'al oilalardan 11 xotin-qizni ishga oldim. Buyurtma asosida ishlayapmiz. Hozirgi ish yojimiz torlik qilyapti. Uymizning chekkasidan seximiz uchun alohida bino qurayman. Agar mahalla yana yordam bersa, faoliyatimni bundan-da kengaytirmoqchiman.

Mahallani aylanib, bundan bir yil avval "Obod mahalla" dasturi doirasida amalga oshirilgan ibratli ishlarimga guvohi bo'ldik. Jizzax — Forish yo'li bo'yida joylashgan qishloq xushmanzaraligi bilan yo'lovchilar diqqatini tortadi. Ikki tarafiga mevali va manzarali daraxtlar ekilgan obod ko'chalar, bog'larga burkangan orasta hovlilar qishloqdagi keyingi yillardagi o'zgarishlar samarasi. "Obod mahalla" doirasida qurilgan mahalla idorasining zamonaviy binosi ham qishloqqa ko'rk berib turibdi.

Ushbu dastur doirasida 8,5 kilometr ichki yo'l ta'mirlanib, 3,1 kilometrta yangidan asfalt yotqizilgan, 4 kilometr piyodalar yo'lagi qurildi. Mahallani tuman markazi va qo'shni qishloqlar bilan bog'lovchi yo'lning 5 kilometr qismi, shuningdek, 4 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 3 dona transformator mukammal ta'mirlanib, 3 dona yangi transformator, 100 dona temir-beton ustun o'rnatildi. Mahalla ahlini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida suv inshooti qurildi.

Yangi diyorga bahor kelmoqda. Bir tomoni toqqa, bir tomoni cho'lga tutash xushmanzara hududda tabiat jonlanmoqda, odamlar bahorga peshvoz chiqmoqda. Tog'bag'ridagi yaylovlarda qo'y-qo'zilarning ovozi, cho'lga tutash dalalar, bog'larda traktorlar shovqini eshitilmoqda. Odamlar harakatda. Ular yangi orzular, umidlar bilan bahorga peshvoz chiqmoqda.

Viloyatda havas qizgulik bunday obod mahallalar ko'p. Obod manzillar soni yil sayin ortib borayotir. Ana shu obodlik va farovonlik tufayli barcha mahallalarda bahoriy uyg'onish, Navro'z taraddudi barvaqt boshlandi.

Bugun Yangi diyoridagi kabi bahorning egzu ishlarini viloyatdagi mavjud 310 ta mahallaning barchasida ko'rish mumkin. Yurtimizning yangi bahori barcha mahallalarga yangicha ko'tarilish bilan kirib kelmoqda. Ta'biatdagi, jamiyatdagi bu uyg'onish mahalla faollari harakatlarini ham jonlantirmoqda. Mahalla faollari uyuma-uy yurib, odamlarga amaliy yordam, maslahat bermoqda. Ular muqaddas Ramazon kunlarida xayrli amallarni bajarish, nochorlarni qo'llab-quvvatlash kabi savob ishlarga, arizlarni tozalash, sport va bolalar maydonchalarini barpo etishdagi hasharlarga bosh-qosh bo'lmoqda.

Farhod NE'MATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Oramizdagi odamlar

# MEHNAT, MEHR VA SABR HALOVATI

O'ktamxon ismi jismiga monand ayol. Rahmatli Qozoqboy aka O'lmasxon aya bilan sakkiz qiz, ikki o'g'li qatori oltingchisiga ism qo'yishda nechog'liq topqirlik qilgan-a: shijoatli, boshqalarni ortidan ergashtira oluvchi, olijanob, himmatli ulug', o'ziga o'ta talabchan. Bu fazilatlar bilan ko'pga mehr berdi, mehr ko'rdi.

O'shanda "Oydin" (viloyat xotin-qizlar gazetasi) kunlarini o'tkazish uchun Yozyovon tumaniga borgandik. Uchrashuv paytida yuzlab mushitariylar orasidan O'ktamxon so'zamolligi, badiiy ijodga tashnalligi, bilimdonligi bilan ko'zga yaqqol tashlanib qoldi. Nihoyatda dilbar, zukko, oliy toifali boshlang'ich ta'lim ustasi nazmu nasrda yaxshigina ijod qilarkan. She'rilarini tinglab bo'lgach, davradagilar qo'shiq kuylab berishga ham chorladi. Odamlarni kutirib o'tirmay, jonli ijroda "Samarqand ushshog'i"ni maromiga yetkazib ijro etdiki, tinglab sel bo'lasiz.

Cho'lquvarlar zurriyotlari haqiqatan shijoakor, so'z salmog'ini anglab, ma'naviyat va san'at qaymog'ini his qila bilishini O'ktamxon misolida yaqqol sezgandik. Xullas, shu kuni Cho'lqulistonidan chaqnaq chiqqan betakor muallima, takrorlanmas ijodkor, viloyat faollarining eng fidoysini kashf etgandik.

Shundan hech qancha o'tmay, respublika miqyosida "Ayol — barkamol avlod murabbiysi" tanlovi o'tkazildi. Tanlovning viloyat bosqichiga tuman, shahar bosqichlari g'oliblari — turli jabhalarning eng fidoylari, namunali ona va oila bekari tashrif buyurdi. Bir-biridan oqila, bilimdon, iste'dodli, suratiyu siyratida o'zbekona lutf va ma'rifat aks etib turgan ayollarga qarab, havasiz keladi. Ular orasida O'ktamxonni ko'rib, negadir quvonib ketdim. Talabchanlik, shaffoflik bilan kechgan tanlovda Farg'ona ayollari nufuzini himoya qiluvchisini tanlab olish bahsli kechdi.



— O'ktam opa maktabda ekan, har qanday ma'naviy-ma'rifiy tadbir, mashhur yozuvchi va shoirlar bilan bo'ladigan adabiy muloqotlar yuqori saviyada o'tishiga ishonamiz, — deydi ijod maktabi direktori Nigoraxon Mannopova. — Har satridan samimiylik yog'ilib turadigan xalqona she'rleri, hayotiy hikoyalari jamlangan, qo'lma-qo'l bo'lib o'qilayotgan kitoblar muallifi, mumtoz qo'shiqlarning mohir ijrochisi go'zal fazilatlar, serqirra

**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, xalq ta'limi a'lochisi O'ktamxon nafaqat tuman, balki viloyatning yangilikka intiluvchan, o'zi va hamkasblari, o'quvchilariga o'ta talabchan ustoz-murabbiy, Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabining eng peshqadam mutaxassislaridan.**



Nihoyat hay'at a'zolarining ovoz berish natijalariga ko'ra, menman degan ayollar orasidan Yozyovondagi 22-maktabning oddiy o'qituvchisi O'ktamxon Soliyeva bunday ishonchga loyiq topildi. U hay'at a'zolari ishonchini oqlab, ko'rik-tanlovning mamlakat miqyosida ham mutaq'g'olib bo'ldi. Bu shunchaki tasodif emasligini keyingi hayotida, ijtimoiy faoliyatida isbot etadi.

Tuproqdan rizq undirib, mehnatdan halovat topgan dehqon oilada voyaga yetgan O'ktamxon ko'ngil qo'ygani — xuddi o'z'lari kabi qo'shninga, o'n farzandning to'ng'ichiga uzatildi. Ne baxtki, ota-ona o'g'itiga ko'ra, umming har lahzasidan o'z haqini olib qolishga intiladigan, vaqt atalmish ulug' ne'matni faqat ezgu ishlarga baxsh etishga o'rgangan O'ktamxonning jufti Mamayunus ham hayotiy qarashlarda ikki tomchi suvdek o'xshash edi. Biri muallima, biri ichki ishlar xodimi bo'lgan yoshlar bo'sh paytlarini yaratuvchi mehnatga bag'ishladi. Mehnatga oshno, ijodga tashna oilaviy muhitda fisq-fujur, g'iybat-g'urbatlarga aslo o'tin yo'q edi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, xalq ta'limi a'lochisi O'ktamxon nafaqat tuman, balki viloyatning yangilikka intiluvchan, o'zi va hamkasblari, o'quvchilariga o'ta talabchan ustoz-murabbiy, Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabining eng peshqadam mutaxassislaridan.

**Xadichaxon KARIMOVA, O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi a'zosi**



# YUNON-BAQTRIYA DAVLATI PAYDO BO'LISHI VA YEMIRILISHI


**Miloddan avvalgi III asrning o'rtalarida salavkiylar davlatida yuz bergan siyosiy beqarorlikdan foydalanib, salavkiylarning Baqtriyadagi noibi Diodot o'zini shoh deb e'lon qildi. Shu bilan birga, Parfiya noibi Andragor ham Diodot bilan bir vaqtda, ya'ni miloddan avvalgi 247-yilda o'zini shoh deb e'lon qilgan. Miloddan avvalgi 230-yillarda Diodot vafot etadi va taxtga uning o'g'li Diodot II o'tiradi. Yustinning yozishicha, Diodot II taxtga o'tirgach, parfiyaliklar shohi Arshak bilan o'zaro tinchlik shartnomasini tuzgan.**

Miloddan avvalgi 220-yilda kelib chiqishi Kichik Osiyodagi Magnesiya shahridan bo'lgan Yevtidem o'z tarafdorlari bilan Yunon-Baqtriya shohi Diodot II va uning yaqin qarindoshlarini o'ldirib, o'zini shoh deb e'lon qilgan. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, salavkiylar shohi Antiox III (miloddan avvalgi 223-187-yillar) sharqdagi ajralib chiqqan o'lkalarni yana salavkiylar tasarrufiga o'tkazish maqsadida yurish boshlagan. Antiox III avval Parfiyani o'z davlati tarkibiga qo'shib olgan va Yunon-Baqtriyaning g'arbiy chegaralariga yetib kelgan. Bundan xabar topgan Yevtidem Gerirud daryosida joylashgan kechuvlarni qo'riqlash uchun ko'p sonli qo'shin yuboradi. Ammo Antiox III qattiq qarshiliksiz qo'shinlari bilan daryodan kechib o'tib, Yevtidem qo'shinlarini Baqtriya poytaxti Zariaspa-Baqtr shahri tomon chekinishga majbur etadi va shaharni qamal qiladi. Qamal ikki yilcha davom etgan. Antiox III ning asosiy maqsadi isyonkor noiblarni yana o'ziga bo'ysundirish bo'lgan. Lekin shahar qamalining uzoq vaqt davom etgani, shaharliklarning bir tan, bir jon bo'lib poytaxtni himoya qilgan Antiox III ni shahatidan qatargan. Natijada ikki tomon muzokaralar o'tkazishga majbur bo'lgan. Yevtidem o'zaro tinchlik bitimini tuzish lozimligini quyidagicha izohlagan: "Chegarada ikkimizga xavf solib turgan ko'p sonli ko'chmanchilar o'rdalari turibdi. Agar u "yovvoyilar" chegaradan o'tib hujum qilsa, mamlakat ular tomondan bosib olinadi".

Oxirgi muzokarada Yevtidemning o'g'li Demetriy ham qatnashgan. Polibiyning yozishicha, Antiox III Demetriyni iliq kutib olgan. Uning qaddi-qomati, so'zlashish madaniyatini shoh unvoniga loyiq ko'rgan va qizlaridan birini tortiq qilib, otasining shohlik unvonini saqlab qolishiga rozi bo'lgan. Muzokaralardan so'ng Antiox III va Yevtidem o'rtasida kelishuv qasami hamda yozma sulh tuzilgan. Bu sulhga binoan, Yevtidem shoh unvonini saqlab qolgan. Antiox III esa Yevtidem fillarini hamda qo'shinga kerak bo'lgan oziq-ovqatni olib, Hindiston tomon yurishini davom ettirgan va Hindikush tog'laridan oshib o'tib, hindlar shohi Safagasen bilan do'stlik bitimini tuzgan. Antioxning Hindiston tomon yurishi Yunon-Baqtriya shohlarining kelajakdagi harbiy yurishlar yo'nalishini belgilab bergan.

Yevtidem hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga g'arbdagi qator qo'shni viloyatlar qo'shib olingan. Ular orasida Marg'iyona, Arey, Aspian va Turiva alohida o'rin egallaydi. Yevtidem hukmronligi davrida Sug'diyona ham Yunon-Baqtriya tasarrufida bo'lgan.

Yunon-Baqtriya hududlarining yanada kengayishi Yevtidemning o'g'li Demetriy nomi bilan bog'liq. Demetriy taxminan miloddan avvalgi 200-yillarda hokimiyat tepasiga keladi. U davlat hududini yanada kengaytirish maqsadida e'tiborini sharqqa, Hindiston tomonga qaratadi. Uning qo'shinlari asta-sekin Maurya davlati tarkibiga kirgan yerlarni bosib ola boshlaydi. Taxminan miloddan avvalgi 180-yillarda



Maurya shohi Brixandratxa qo'shinlari Demetriy tomonidan tor-mor etiladi va Gandxaraning bosh shahri Patilputra (Peshovar) istilo qilinadi. Demetriy Hindistonni zabt etib yurgan bir vaqtda Baqtriyada Yevkratid tomonidan davlat to'ntarishi uyushtirilgan. U o'ziga "xaloskor" deb nom bergan. Bu bilan Yevkratid Baqtriyani Demetriydan xalos qilganini qayd etmoqchi bo'lgan. Voqeadan xabar topgan Demetriy qo'shinlari bilan Baqtriya tomon yo'l oladi. Bu to'g'rida Yustin quyidagilarni bayon qilgan: "Deyarli bir vaqtning o'zida Mitridat Partavada, Yevkratid esa Baqtriyada podshoh bo'ldi, ikkalasi ham buyuk insonlardir".

Yevkratid Demetriyga qarshi urushlarni davom ettirdi, u uzluksiz hammlar qilib, dushman ustidan g'alaba qozondi. Besh oy davom etgan qamaldan so'ng Hindistonni bo'ysundirdi. Baqtriyaga qaytish vaqtida Yevkratid bundan oldin o'ziga teng hukmdor qilib tayinlangan o'g'li Geliokl tomonidan o'ldirildi. Yevkratid o'limi Yunon-Baqtriya davlati siyosiy inqirozini tezlashtirdi. O'rtta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston yerlarini birlashtirgan qudratli Yunon-Baqtriya o'mida Diodot, Yevtidem va Yevkratid avlodlaridan bo'lgan hokimlar o'z viloyatlarida tangalar zarb qilishni yo'lga qo'ydi. Miloddan avvalgi II asrning yarmida Baqtriya va Sug'diyonada Antimax hukmronlik qildi va o'z nomidan tangalar zarb qila boshladi. U tangalarda o'zini "Teos", ya'ni "Xudo" deb qayd qilgan. Bu bilan Antimax aholi orasida o'z nomini ilohilashtirishga harakat qilgan. Yunon-hind shohlari orasida shoh Menandr alohida shuhrat qozongan.



Miloddan avvalgi II asrning uchinchi choragida Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlarining sharqiy hududlariga Markaziy Osiyoda yashagan ko'chmanchi qabilalar hujumi xavfi kuchaydi. Yunon-Rim tarixchilari ularni umumiy skiflar nomi bilan yoki saklar, skaravaki, toxtarlar deb qayd qilgan. Yunon-Baqtriya shohlari Hindikush ortidagi yerlarni zabt etish, o'zaro urushlar oqibatida kuchsizlangani sababli bu ko'chmanchi qabilalar tazyiqiga qattiq qarshilik ko'rsata olmadi. Miloddan avvalgi 128-yilda Dunxundan Baqtriyaga kelgan xitoylik sayyoh-diplomat Chjan Syan Baqtriya yuveychji-katta yuveychji ko'chmanchilar tomonidan zabt etilganini qayd qilgan.

## Baqtriya shaharlari va shaharsozligi

Makedoniyalik Aleksandr yurishlari davomida Baqtriya va Sug'diyonaning hunarmandlik markazlari bo'lgan ko'plab shaharlar vayronaga aylangan edi. Aleksandr vafotidan keyin sharqdagi o'lkalar, jumladan, Baqtriya va Sug'diyona salavkiylar davlati tasarrufiga o'tdi. Salavkiylar davrida yuzaga kelgan siyosiy barqarorlik bu o'lkalardagi ko'plab shaharlarning iqtisodiy hayotiga ijroiy ta'sir ko'rsatdi. Shahar va qishloqlardagi harqy asta-sekin iziga tusha boshladi va tarqoqiy etdi. Bu jarayon Yunon-Baqtriya davrida sifat va mazmun jihatidan yangi

bosqichga ko'tarildi. Eski shaharlar tez sur'atlar bilan rivojlandi, ko'plab yangi shaharlarga asos solindi, ularning iqtisodiy salohiyati oshdi.

Yunon-Baqtriya podshohlari davrida Baqtriyada iqtisodiy va ijtimoiy hayot tez sur'atlar bilan rivojlanib, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarildi. Yustin Diodotga "Baqtriyaning mingta shahri hukmdori" deb ta'rif bergan bo'lsa, Strabon "Yevkratidga mingta shahar bo'ysungan", deb yozadi.

Yozma manbalarda Baqtriyada yangi shaharlarga ham asos solingan to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Yevkratideya shahri barpo etilgan.

Baqtriyadagi eng yirik shaharlardan biri davlat poytaxti Zariaspa-Baqtr bo'lib, u Afg'onistonning Balx shahri o'rtida joylashgan. Shahar mudofaa inshootlarining mustahkamligi sabab Antiox III uni 2 yil qamal qilib, ishg'ol eta olmagan va Yevtidem bilan sulh tuzishga majbur bo'lgan.

Yunon-Baqtriya davrida asos solingan yirik shaharlardan yana biri Oyxonim yodgorligidir. Bu yodgorlik Afg'onistonning shimoli-sharqiy hududida, Ko'kcha daryosining Panj daryosiga quyilgan yerida joylashgan. Shaharning tarhi uchburchak ko'rinishida bo'lib, uning eng uzun joyi 2000 metrga yaqin.



Shahar ikki — yuqori va quyi shahardan iborat bo'lib, mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Oyxonim ellin dunyosiga xos bo'lgan haqiqiy polis-shahardir. Shahardagi binolar tizimli joylashtirilgan. Quyi shahardagi shohko'chaning ikki tomonidan mahobatli ustun va ayvonlar bilan bezatilgan jamoat binolari joy olgan. Bu yerda shahar aholisi uchun ibodatxona, gimnaziya va boshqa mahobatli binolar qad ko'tarib turgan.

Yunon-Baqtriya davriga oid qator yodgorliklar Surxondaryo viloyatida ham aniqlangan. Xolchayon, Dalvarzintepa, Qadimgi Termiz, Kampirtepa, Jondavlattepa, Hayitobodtepa, Talashkantepe va Uzundara kabi arxeologik obidalar shular jumlasidan. Jondavlattepa va Hayitobodtepadagi arxeologik tadqiqot natijalariga qaraganda, bu shaharlarga ahamioniyat davrida asos solingan bo'lib, makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari vaqtida qisman vayron etilgan. Yunon-Baqtriya davrida esa qayta tiklangan, hayot tez sur'atlar bilan rivojlangan va ular muayyan kichik dehqonchilik vohalari markazlariga aylangan.

## Dehqonchilik va hunarmandchilik

Baqtriyaning tabiiy geografik o'imi, boy hayvonot dunyosi va serunum tuproqlari qadimdan insonlar e'tiborini o'ziga qaratgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Strabon Appolodomning so'ziga asoslanib, "Baqtriya butun Ariananing ko'rkidur", deb qayd qilgan. O'lkaning o'rtasidan sharqdan shimoli-g'arbiy tomonga Amudaryo — Oks oqib o'tgan. O'lkaning janubiy qismida joylashgan Hindikush va shimoldagi Hisor tog'laridan oqib kelayotgan qator katta-kichik daryo va soylar dehqonchilik bilan shug'ullanishga qulay imkoniyat yaratgan. Aholi turli-tuman dehqonchilik mahsulotlari yetishtirgan. Strabonning quyidagi so'zlarini qayd qilish zarur: "Baqtriya zaytun yog'idan tashqari barcha mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Mamlakat yerlarining serhosilligi sabab Baqtriyani qo'zg'olonga chaqirgan yunonlar shunday qudratga ega bo'ldilarki...".

Baqtriyaliklar boshoqli o'simliklar yetishtirishga ko'proq e'tibor qaratgan. Ular

bug'doy, arpa, suli va sholi kabi mahsulotlar yetishtirgan. Pliniyning yozishicha, "Baqtriyada bug'doy donlari shunday yirikki, bizning boshoqlarga teng".

Aholi dehqonchilik bilan bir qatorda bog'dorchilik bilan ham shug'ullangan. Ular ko'proq uzumning turli navlarini yetishtirgan.

Baqtriya aholisining iqtisodiy hayotida chorvachilik katta o'rin egallagan. Ular qo'y, echki, sigir va tuyalar boqqan. Baqtriyaning ikki o'rkachli tuyalari qadimda ham, hozir ham e'zozlanadi.

Bu davrda hunarmandchilikning o'ri yanada yuksaladi. Qurilish, kulochilik, temirchilik, qurolsozlik va zargarlik sohalari tez sur'atlar bilan rivojlandi. Chunki shahar aholisining bu sohalar mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji katta edi.

Shahar bozorlarida mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari bilan bir qatorda yunon-makedonlar tayyorlagan mahsulotlarni xarid qilish mumkin bo'lgan. Bunda mahalliy va ellin madaniyatining o'zaro bir-biriga ta'sirini kuzatish mumkin edi. Bunga misol qilib kulochilik sohasini keltirish mumkin. Aynan shu sohada mahalliy va ellin madaniyatlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida bu yerda sopol idishlarning o'ziga xos shakllari paydo bo'ldi.

## Ichki va tashqi savdo

Yunon-Baqtriya davrida Baqtriya va Sug'diyonada tovar-pul munosabatlari salavkiylar davriga qaraganda yanada keng rivojlangan. Baqtriya hamda Sug'diyonaning shahar va qishloqlarida Yunon-Baqtriya shohlari tomonidan zarb qilingan tangalarning ko'plab topilishi buning yorqin dalili. Hatto Buxoro viloyati va Qashqadaryoning Kitob shahri yaqinida Yunon-Baqtriya shohlari tangalaridan iborat xazinalar topilgan. Bu tangalar, asosan, yunonlarning antik oltin birligi standartlariga asoslangan va u 8 gramm oltinni tashkil etgan. Bozorda, asosan, turli qiymatdagi kumush va mis tangalar muomalada bo'lgan. Diodot va Yevtidem tangalarida "Shoh Diodot" va "Shoh Yevtidem", deb yozilgan bo'lsa, Yevkratid tangalarida "Buyuk shoh Yevkratid", deya qayd qilingan.

Yunon-Baqtriya davrida tashqi savdo jadal rivojlangan. Bunda katta hududlarning bir davlat tarkibiga kirgani alohida ahamiyat kasb etgan. Buni Hindiston misolida ham kuzatish mumkin. Hindistonning katta hududi Yunon-Baqtriya tarkibiga qo'shib olinishi nafaqat bu ikki o'lkada orasidagi savdo munosabatlari, balki xalqaro buyuk hind yo'li yanada uzviylashuviga sabab bo'lgan.

Baqtriya va Sug'diyonada madaniyat va san'at tez sur'atlar bilan rivojlangan, ushbu maskanlar madaniyati o'ziga xosligi va ildzirlari bilan qadimgi davrlarga borib taqalishi aniqlandi. Yunon-Baqtriya davrida Baqtriya qadimgi dunyoning yirik madaniy markazlaridan biri bo'lgani so'ngi yillardagi arxeologik tadqiqotlarda o'z tasdiqini topmog'da. Bu borada Kampirtepa, Qadimgi Termiz, Xalchayon, Oyxonim, Taxtisangin, Uzundara va boshqa yodgorliklardan topilgan toshdan, loy-ganchdan ishlangan mahobatli haykallar, rangli suyuqlik devoriy suratlar, me'morlik bezaklari alohida o'rin egallaydi. Ular ishlanish uslublari, o'ziga xosligi, ta'sirchanligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Topilgan haykallarning birida ellin dunyosi an'analari yorqin ifodasini topgan bo'lsa, boshqalarida mahalliy Baqtriya an'analari, yana bir qism haykallarda hind-gandhar madaniyati an'analari ta'sirini kuzatish mumkin. Haykallarda Yunoniston, mahalliy ma'bud va ma'budalar, shohlar va sarkardalar obrazlari tasvirlangan.

San'atning beqiyos rivojlanganini Yunon-Baqtriya shohlari tomonidan zarb qilingan tangalar misolida ham ko'rsa bo'ladi. Qadimgi zarbchilar tangalarning kichik doirasida har bir shohning nafaqat tashqi qiyofasini aniq ifoda eta olgan, balki har birining ichki dunyosi va fe'lini ochib berishga ham muvaffaq bo'lgan.

Baqtriya va Sug'diyonada yunon-baqtriya davrida madaniyat hamda san'at rivoj topganini hatto kundalik ehtiyoj mollari hisoblangan kulochilik mahsulotlari misolida ham kuzatish mumkin. Bu davrda tayyorlangan sopol idishlar yuqori sifati va shakli bilan ajralib turadi. Kulollar idishlarga bejirim shakl berib, ularni amaliy san'at asari darajasiga ko'tara olgan.

**Shokirjon PIDAYEV, O'zFA Sharqshunoslik instituti direktori, tarix fanlari nomzodi**



# MAQOMNI NEGA O'RGANISHIMIZ KERAK?

## OHANGLARGA YO'G'RILGAN O'ZLIGIMIZ SIRI

Milliy maqomlarimiz haqida gap ketganda, uning bebaho madaniy boylik ekanini ta'kidlaymiz. Hech shubhasiz, shunday. Ammo uning asl bahosi nimada? Maqomning qanday siri borki, asrlar osha yashab kelyapti? Yangi O'zbekistonda xalqimiz, xususan, yoshlarga o'zligini anglatish uchun maqomlarimiz keng targ'ib etilmoqda. Buning zamirida qanday hayotiy haqiqatlar bor? Bu kabi savollarga javob topish uchun O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori o'rinbosari Soyibjon Begmatovga yuzlandik.



— Soyibjon aka, bir safar maqom haqida fikr bildirib, "Aslida, asosi maqomga qurilgan har qanday qo'shiqda milliy ruh, dard bo'ladi. Shuning uchun yuzimizda mustamlaka o'rnatganlar millatimiz buyuklarining, jaddilarning ildiziga bolta urish barobarida xalqimizni yaxshi ko'rib tinglagan musiqasi — maqomlaridan ham ayirgan", degan edingiz. Demak, maqom bezovita o'zligimizni anglashimiz uchun xizmat qiladi, shundaymi?

— Ha, maqomlar — o'zbek xalqi ma'naviy dunyosining ohanglardan mujassam topgan tarixi. Buyuk xalqning tarixi ham buyuk bo'ladi. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan tarixiy obidalar kabi maqomlarimiz xalqimizning

roh (yo'l), parda (o'rin, joy), nag'ma, lahn (kuy), tarona, qavl, amal (ish), kor (ish), naqsh, peshrav (oldinga borish), savt (sado, ovoz) kabi mumtoz janrlar ko'rinishida shakllanib, rivojlangan. Agar bulardagi ma'nolar tizimini

anglatish maqsadi bor. Ya'ni bu islohotlar yosh avlodga o'zlikni anglatish yo'lidagi sa'y-harakatlardir!

Zero, maqom tinglab ulg'aygan har bir insonning vataniga, oilasiga, hayotga munosabati maqomdagi baland, ma'naviyati buyuklik hissi bilan boyiydi. Maqomni tinglaganda inson olamni idrok qiladi. U bilan qadrlay olish ko'nikmalari shakllanadi. Shu ma'noda, yoshlarimiz qalbi buyuk va sehrli sadolar bilan sug'orilishi, bu yo'lda chin dildan ijod qilishlariga imkoniyatlar yaratib berilyapti. Chunonchi, maqomlarni ijro etish uchun ular ustozlardan olgan puxta bilim, o'tmish an'analari bilan sug'orilgan go'zal ijrolari, xalqimizning eng nafosatli sirli dunyosini ko'rsata oladigan talqiniga ega bo'lishi lozim. Buni xalqimiz azaldan ijrochilik san'atida qo'llab keladi. Qaysi tarixiy asar, risola-yu manbalarni, doston-u romanlarni o'qimang, albatta, o'z davrining buyuk sozanda, xonanda, bastakor musiqashunoslari nomi va ular qoldirgan meros haqidagi ma'lumotlarni uchratasiz. Chunki ular doimo xalq bilan birga odamlarning hayotini kuylab, ma'naviyatini ulug'lab kelgan.

— Maqom qo'shiqlarining o'ziga xos o'rnini, manzil-makoni borligi haqida eshitamiz. Maqomni tinglash uchun alohida tayyorgarlik, kayfiyat kerak bo'ladi. Maqom qo'shiqlarining qaysilarini qay vaqtda tinglash kerakligi borasida juda ko'p o'rganishlar olib borilayotganidan maqsad ham shu, aslida. Shunday emas?

— Savolingiz juda o'rinni. Sababi maqomlar ohanglar ko'rinishida insoniyatga yetkaziladi. Ohanglarni tinglab bahra olinadi. Maqomlar 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan insonlarga monand yaratilgan. Har bir nuqtasi, takti, mavzusi, rivoji, oxir-oqibat tarkibiy tuzilishi o'ylangan, o'lchangan va me'yorga asoslab yaratilgan. Shu bois, maqom ilmdir. Uni ijro etish uchun bilimli ustoz ko'rgan sozanda va xonanda bo'lish kerak. Olti maqomni olti dunyo, olti mavzu, olti holat, olti obraz deb tasavvur etish mumkin. Masalan, "Buzruk" maqomi buyuklik, qudratlilik maqomi bo'lib, insoniyatda ulug'vorlik hissi, qudratning shakllanishi uchun xizmat qiladi. U inson qalbidagi shijoat, tashabbuskorlik ruhini uyg'otadi.

"Rost" maqomi — to'g'ri yo'l. Istasangiz, istamasangiz, sizni rostlik yo'lga boshlab, yaxshi ma'nodagi "ramka"ga soladi.

"Navo" — erkinlikdir. U tom ma'noda o'zbekning navosi! U ruhingizni ko'klarda parvoz ettiradi.

"Dugoh" — ikkilik. Dunyo o'zi ikkilikka — oshiq va ma'shuqaga asoslangan. U ishq maqomi, muhabbat navosidir! "Dugoh"ni eshitgan inson qalbidagi muhabbat jo'sh uradi. Inson har qanday holatda, ishdagi muhabbat bilan harakat qilishi kerak. Masalan, sizga yoqmagani amalni bajarmaysiz. Ko'nglingiz xushlamagan kishi bilan ko'rishish, suhbatlashishni istamaymiz. "Dugoh" insonlarni sevishga, muhabbat bilan yashashga, doimo ko'rarlik kayfiyatda bo'lishga undaydi. Har qanday holatda "Dugoh"ni eshitganingizda qalbingizda muhabbat jo'sh uradi.

"Segoh" — uchinchi nuqta, hijron. Xayolga cho'kdiradigan, olis xotiralarni uyg'otadigan va kuch beradigan musiqa. Shu ma'noda, bu ayriqlik emas, xotira, eslash demak. Chunki "Segoh" maqom ohangida eslash, izlash izhoridir. U bizni uchinchi nuqtani eslashga undaydi. Zero, xalqimiz o'ziga yaqin insonlarni eslab, qadrlab yashaydi. "Segoh" buning yorqin namunasidir.

"Iroq" — xayr, ayriqlik maqomi. Inson ruhi gohlida mana shunday bir oz mahzun kuyga ham ehtiyoj sezadi. Qaysidir ma'noda dil izhorini kuy sehiri ila ifoda etilgan bo's, o'ziga kuch, quvvat oladi.

Umuman, har bir maqomning ijro etish kerak bo'lgan vaqti, joyi, o'z makoni bor. Bu borada turli tarixiy manbalarda bir-biridan farqli fikrlar keladi. Xususan, Navoiy bobomiz davrida yashab ijod qilgan Najmiddin Kavkabiy



buyuk ma'naviy dunyosini ohanglarida aks ettirgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan musiqiy merosdir.

Butun dunyo olimlari o'zbek xalqi o'tmishini haligacha o'rganadi. Umumbashariyat sivilizatsiyasiga betakror olimlarni, olamshumul sarkardalarni, sohibqironlarni, ulug'vor inshootlarni hadya etgan xalqning sirli olamini, ma'naviyatini, tafakkur sirlarini haligacha idrok etishga urinadi. Maqomlar ham ana shunday buyuk meros, ularda xalqimizning ma'naviy dunyosi mujassam.

Dunyoning eng buyuk tarixga ega 12 ta mamlakatida maqom janri bor. Maqomlar bunday holatga kelguncha xusravoniy (buyuk),

nazar solsangiz, insoniyatning taraqqiyot yo'li aks etganini ko'rasiz. Musiqiy tafakkurning mumtozlik maqomiga erishishi jarayonidagi har bir janr o'ziga xosligi va bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. Maqom so'zining o'zi "joy", "makon", "o'rin", "tovushqator", "parda", "janr", "holat", "harakat" kabi 20 dan ortiq ma'no kesimida keladi. Shu bois, maqomot mumtoz musiqaning eng mukammal va murakkab janri sifatida qaror topgan.

Prezidentimizning mumtoz san'atimiz, xususan, maqomga berayotgan mislsiz e'tibori zamirida ham xalqimizning o'tmishi buyuk ekani, kelajagi ham shunday buyuk bo'lishini

Navoiy bobomiz "Mahbub ul-qulub" asarida maqomlar bizga nima uchun kerak, degan savolingizga juda chiroyli javob bayon etgan. Ya'ni Navoiy ta'rificha, ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdand ozig' oladi. Maqom eng mukammal, murakkab, musaffo, purma'no hamda ulkan badiiy va estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan musiqiy janrlarning gultojidir. Dunyo esa doimo mukammal sari shaxdam qadam tashlayotgandek. Har bir zamon va uning makomida bunday jarayonni ko'rish mumkin. Agar zamon va makon o'z "maqom"ida rivoj topgan bo'lsa, u xalq o'z buyukligini saqlab

# "BOLANING SHO'X BO'LGANI YAXSHI-DA.."

## Farzandlar ta'lim-tarbiyasiga beparvo ota-onalar e'tiboriga

Qo'shning bilan mahalla idorasiga yig'ilishga ketayotganimizda yo'l-yo'lakay uch-to'rt yosh-yalang kulib, baland ovozda gaplashib ketardi. Bir qarasangiz, go'yo hazillashayotganday, lekin juda qo'pol so'zlar. Nazarimda, ularning o'zi ham nima deyayotganini to'liq anglamaydi, shekilli.



— Bular o'zlarini aqlli, zamonaviy, ko'p narsani biladigan etib ko'rsatish uchun shunaga so'zlarini ishlatishi odatiy hol bo'lib qoldimi deyman-da, — o'zicha izoh berdi qo'shning. — O'limlagarlikning bir ko'rinishi.

Ular mahallamiz bolalarini-yo'qmi, bilolmadik. Shunday bo'lsa ham:

— Bir bolaga yetti mahalla ota-ona, tanbeh berib qo'yaylikmi? — dedim. Ammo qo'shning: "Mayli-ya, lekin ular mahalla tugul, ota-onalariga ham quloq tutmaydigan ko'rinadi" degach, indamay qo'ya qoldim.

Majlislar zaliga o'n besh-yigirma chog'li odam to'planib bo'lgan ekan. Mahalla raisi bugungi yoshlar, xususan, farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasida kuzatilayotgan salbiy jihatlari haqida kuyinib so'z boshladi. Muomalasi, yurish-turishlari, kiyinishlari butunlay o'zgarib ketayotgani, yosh oilalarning ajralishlari xususida ko'p achiqchi gaplar aytildi.

Shu payt eshik ochilib, bugungi hayotning yarmi xorijdan turli atir-upa, kiyim-kechak keltirib sotish-u sayr-u sayohat bilan o'tayotgan juvon mo'r'aladi.

— Assalomu alaykum, qo'shnilar, yaxshimisiz, Shodivoy aka, — deya mahalla raisiga alohida iltifot ko'rsatib jilmaydi. — Qimmatli vaqtlaringizni olayotgan uchun uzr, albatta. Soat birga uyimizga barchangizni taklif etgani keldim, kenjatoyimizing tug'ilgan kuniga. Alohida uyma-uy kirib aytolmaganim uchun xafa bo'lmaysizlar. Bahonda Dubaydan olib kelgan zo'r narsalarimni ko'rib ketasizlar. Qo'shnilarga arzon narxda, — dedi tanozlik bilan qo'lidagi tilla uzugini o'ynatib.

— Kiring, o'tiring, majlisda qatnashing siz ham vaqtiging bo'lsa, — dedi rais istehzo bilan. Juvon bu kinoyani anglamadi.

— Yo'q, rahmat. Hali borishganda aytib berishar nima haqidagini. Kenjatoy uyda bir o'zi qolgan. Mehmonlar kelsa-yu, uning o'zi bo'lmasa, sizlarga hurmatsizlik bo'lmasin tag'in deb maktabiga ataylab yubormagandim. O'zinglar, kutamiz. Xodimlarni ham aytavering, bilasizlar, joy bemalol.

Nazarida hammasini juda madaniyatli tarzda bajarganiga ishonchi komil bo'lgan juvonga hamma uning ortidan havas bilan qarab qolgandek tuyuldi.



— Xo'sh, qayerda qoldik, nimaga kelgandik? — savol nazari bilan yuzlandi mahalla raisi to'planganlariga. — Faolroq, o'rtog'lar, fikr, takliflar beringlar. Bolalarga hozir nimalar salbiy ta'sir ko'rsatyapti? Ularga tarbiya berishga e'tiborimiz susayib ketmayaptimi?

— Hammasiga telefon aybdor, dars qilish o'rimga yarim tungacha shu matohni titkilash

bilan band. So'rasangiz, telefon orqali dars qil-yapman deydi, — zorlandi yuziga maishat nuqsi urgan yoshgina juvon. — Hamma narsa bilan ta'minlab qo'rgan bo'lsak. Menimcha, maktabda yaxshi tarbiya berishmaypti, shekilli...

— Klaraxon, gap moddiy ta'minot haqida emas, bolalarimizning tarbiyasi, ma'naviyati haqida boryapti. Qolaversa, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanishini nahotki bilmasangiz...

— To'g'ri, oiladan boshlanadi. Lekin oldin iqtisod, keyin siyosat, deyiladi. Hamma yaxshi narsa bolalarga, degan prinsippa amal qilib, avvalo, ularga eng yangi chiqqan narsalarni olib beramiz. O'qishiga kelsak, o'g'lim imkon qadar chuqur bilim olishni xohlagani uchun maktab va o'quvchilar o'rtasidagi shartnomaga ko'ra, 5-sinfda qayta o'qish uchun kontraktini yana bir yilga uzaytiribdi.

Bu gaplarga uch-to'rt kishi kulib yubordi. Mahalla raisi ham juvonning bu gaplari hazilmi-chinmi, anglay olmay so'radi:

— Qanaqa kontrakt? O'zi siz bolalarimiz o'qiydigan maktabga borganmisiz? Qiziqqanmisiz o'qishlari bilan?

— Ish ko'pligidan vaqt ajratolmayapman. Hozir hamma joyda kontrakt, kredit degan narsalar ko'payib ketgan-ku. Zamon juda tez o'zgarayapti, bular maktablarda ham bo'lsa kerak-da, o'g'lim shunaga dedi. Ya'ni o'z ixtiyori bilan bilimni mustahkamlamoqchi, menimcha.

— Aslida, maktabda o'zingizni qayta o'qitish uchun siz bilan shartnoma tuzish kerak, shekilli.

— Voy, man maktabda o'qiganman, byudjetda o'qiganman!

— Tushunarli, mahalladoshlar, masalaga jiddiyroq qaraylik.

maqomlarni qaysi paytda tinglash kerakligi xususida "Musiqalar bayoni: 12 maqom" degan musiqiy risola yozgan. Unda muallif ilmiy asoslangan fikrlarini ham nazmiy, ham nasriy shaklda bayon etgan. Masalan, "Ushshoq"ni ikki namoz o'rtasida tinglasangiz, o'zingiz yaxshi ko'rgan insonlar diydoridan bahramand bo'lasiz, degan fikr bor. E'tibor bersangiz, nahorgi oshda hoziflar "Ushshoq"ni, "Qaro ko'zim", "Qo'qon ushshog'i", "Samarqand ushshog'i"ni aytadi. Vaholanki, ularga hech kim bu qo'shiqlarning ilmiy asoslari haqida aytmagan. Lekin beixtiyor shunday yo'l tutadi. Fikrimcha, maqom targ'ibotida mazkur jihatlarni hisobga olib, ulami mavridi bilan, o'z o'rmda efriga uzatish maqsadga muvofiq.

— Maqomlar kishi ruhiyati va sog'lig'iga qanday ta'sir etadi?

— Yuqorida Navoiy bobomizdan iqtibos keltirdik: "Ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdand ozig' oladi". Insonda hayotini boshqaradigan va doimo yo'l ko'rsatib, kuch bag'ishlaydigan unsurlar mavjud. Bularning biri muztoq' kabi ulkan, soch tolasini kabi nozik bo'lgan ko'ngildir. Ikkinchisi inson jismining ikkinchi bo'lami bo'lgan ruhiyatidir. Inson ruhan tetik bo'lsagina, har qanday amalning uddasidan chiqishga ishonchi mustahkam bo'ladi. Munajat Yo'lchiyeva "Qaro ko'zim"ni ijro etganida, bir fransiyalik bemor o'zini yaxshi his qilgan. U bu qo'shiqni qayta-qayta tinglab, shifo topgan. Chunki Munajat Yo'lchiyeva avjini jon-jahdi bilan, go'yoki halqumda aytadi. "Navoiyning qizi" deya hurmat topishida ham uning avj pardasi muhim omil bo'lgan. Mahmudjon Tojiboyev maqom aytganida, uni qurshab olgan sayyohlardan biri "Tushuntirib bering, nega men yig'layapman?" degan ekan. Bu faktlar maqomning davolovchi xususiyatiga dalil bo'ladi, menimcha. Maqom aytguchining ovozi mung, shira bo'lsa, tinglovchi bahra oladi, ruh tozaraveradi. Hozir bir og'iz gap bilan falon maqom bu xastalikka, unisi piston kasallikka davo deyish qiyin. Chunki bu juda katta ilmiy izlanishni, ajdodlarimizdan qolgan turfa fikrlar esa bahslarni talab etadi. Ammo bitta o'zgarma haqiqat bor — biz xalqimizning bebaho musiqiy merosi bo'lgan maqomlarni tinglab, ruhiyatimizni tozalab yurishimiz kerak. Maqom — ruh shifosi! Zabardast maqom namunalarning qudratli ohanglaridan zavqlanib yashaylik, sehrli sadolarining beadad imkoniyatlaridan bahramand bo'laylik.

Musiqa inson sog'lig'iga ta'siri haqida xalq ijodiyotida juda ko'p misollar mavjud. Musiqaga insonni qay darajada ulug'likka yetaklashi mumkin bo'lsa, ruhiyatiga shu darajada salbiy ta'sir etish qudratiga ham egadir. Shu bois, umumbashariyat musiqasi ijodkorlari doimo go'zal an'analarni o'zida mujassam etgan qadriyatlarini, ulug'vorlik, bahodirlik, odamiylik, insonparvarlik, vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni in'liko etadigan ohanglarda asarlar yaratishga urinadi. Zero, undan insoniyat bahra olsin, musiqa ularning hayotiga go'zal onlar, ulkan umidlar hadya etsin.

\*\*\*  
Suhbatimiz yakunida shuni yana bir bor anglab yetdikki, ruhimizga musiqa terapiyasi zarur. Zero, shunday insonlar borki, u bilan o'zini tetik, ruhan yengil his qiladi. Ayniqsa, otobobalarimiz yuragiga shijoat, bilagiga quvvat bergan maqom musiqasi terapiyasining eng kuchli vositasidir. Shunday ekan, ularni avaylab ishlatishimiz, kelgusi avlodlarga ham yetkaza olisimiz kerak.

Munajat MO'MINOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mahalla raisi shundan so'ng yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, gijohvandlik, ichkilikbozlik, oilaviy ajralishlar, buzg'unchi va radikal oqimlar ta'siriga tushish holatlari davom etayotganiga urg'u berdi. Bunga beparvolik, loqaydlik bir kun pand berishi mumkinligini ta'kidladi. Uch-to'rt kishi "To'g'ri-to'g'ri", deya bosh irg'ab ma'quulladi. Lekin ko'pchilik tez-tez telefonidagi soatga qarab qo'yar, o'rtada shivir-shivir ham ko'paydi.

— Ha, o'rtog'lar, hamma gaplarga qo'shilamiz, vahima qilishga hojat yo'q. Bunday majlislar kerak, lekin soat bir bo'lyapti. Klaraxon kutib qoldi, tug'ilgan kunga o'tmasak, xafa bo'ladi. Keyin davom ettiramiz, — dedi butun yig'ilish davomida mizg'ib o'tirgan qo'shnilardan biri. Xuddi shuni kutib turgandek, hamma o'rnidan qo'zg'aldi.

Ularining ortidan kuzatib qolgan mahalla raisining yodiga beixtiyor mashhur "Uchrashuv" filmidagi bir epizod tushdi. Unda otasiga bezori o'g'lidani shikoyat qilib kelgan qo'shnilar o'rtasida bunday gap-so'zlar bo'ladi:

— Bunchalik vahima qilmang, Shodivoy. Bolalik qilib urishgan bo'lsa, urishgandir. To'g'ri, o'g'limiz sho'xlikka sho'x. Bolaning sho'x bo'lgani yaxshi-da...

— Oldini oling, tartibga chaqiring, deyaqman-da.

— Men sizga aytam, Shodivoy aka, burun deganning o'zi mo'rt bo'ladi. Sal narsaga shovillab qon oqib tushaveradi. Ha, endi qo'l-po'li tegib ketgan bo'lsa, qonasa-qonagandir... Shunga ham tartib-intozom deb o'tirsak, qanday bo'larkan, Shodivoy aka?!

Rustam BOYTO'RA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 2036. Buyurtma — 2574. 41157 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. O'fset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

O'za yakuni — 21:05 Topshirildi — 22:45